O'QUV QO'LLANMA

A.Imomov, S.Toshboev

HISOBLASH USULLARI

"O'ZKITOBSAVDONASHRIYOTI" NMIU

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

Adash Imomov, Sayfiddin Toshboyev

HISOBLASH USULLARI

(o'quv qo'llanma)

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan (51302100-amaliy matematika va informatika) bakalavriyat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun

TOSHKENT
"O'ZKITOBSAVDONASHRIYOTI" NMIU
2023

UO'K: 626.8(075)
KBK: 22.19

Taqrizchilar: Yu.P.Apakov, f-m.f.d. professor

X.Yo.Najmiddinova, p.f.d. dotsent

A.Imomov, S.Toshboev // "Hisoblash usullari" fanidan O`quv qo'llanma. // "O'ZKITOBSAVDONASHRIYOTI" NMIU Toshkent – 2023, - 120 b.

Annotasiya

Oquv qo'llanma universitetlarning 5130200-«Amaliy matematika va informatika» bakalavr yo'nalishi uchun mo'ljallangan. Unda sonli tenglamalar, ularning chiziqli va nochiziq sistemalari, xos sonlar muammosi, interpolyasiya, taqribiy integrallash, oddiy differensial tenglamalar uchun boshlang'ich va chegara masalalar, xususiy hosilali differensial tenglamalar uchun chegara masalalar, integral tenglamalarning taqribiy yechish usullari qaralgan. Barcha usullarning Mathcad va Maple tizimlardagi yiriklashtirilgan algoritmlari, programmalari, yechimlarning grafik tasvirlari keltirilgan.

Аннотация

Учебное пособие предназначен для студентов направления 5130200-«Прикладная математика и информатика». В нем содержится приближённое решение одного уравнения, систем линейных и нелинейных уравнений, проблема собственных значений, задачи интерполяции и приближённого интегрирования, задачи Коши и краевых задач для обыкновенных дифференциальных уравнений, дифференциальных уравнений с частными производными и интегральных уравнений, укрепнённые алгоритмы. Во всех решениях данны программы и графики всех методов в математических системах Mathcad ва Maple.

Annotation

The textbook is intended for students of the direction 5130200 - "Applied Mathematics and Informatics". It contains an approximate solution of a single equation, systems of linear and non-linear equations, an eigenvalue problem, interpolation and approximate integration problems, Cauchy problems and boundary value problems for ordinary differential equations, partial differential equations and integral equations, hardened algorithms. In all solutions, these programs and graphics of all methods in the mathematical systems Mathcad and Maple.

ISBN: 978-9910-756-15-3

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikga erishgandan so'ng ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy va ma'naviy hayotda ayniqsa ta'lim sohasida o'z aksini topmoqda.

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim sifatini jahon andozalari darajasiga yetkazish ta'lim tizimining eng dolzarb vazifasiga aylandi. Bu esa, barcha mutaxassisliklarni tayyorlash sifatini oshirishni taqozo etadi.

O'quv qo'llanmada keltirilgan ma'lumotlarni tushunish uchun talabadan algebra va analizdan dastlabki tushunchalar bilan tanish bo'lish talab etiladi.

Hisoblash usullari fani algebra va analiz masalalarini, differensial va integral tenglamalarni taqribiy yechishga bag'ishlangan. Bu yerda bitta chiziqsiz tenglama, ularning sistemalari, chiziqli tenglamalar sistemalari, xos vektorlar muammosi, interpolyasiya, taqribiy integrallash, oddiy va xususiy hosilali differensial va integral tenglamalarni taqribiy yechish masalalari, barcha usullarning Mathcad, Maple matematik tizimlaridagi yiriklashtirilgan algoritmlari, hisoblash eksperimentlari, yechimlarning jadval va grafik tasvirlari keltirilgan.

Shuni aytib o'tish joizki, respuplikamizda Hisoblash usullari fanidan o'z vaqtida bir necha masalalar toplamlari chop etilgan bo'lib, ulardan Abduqodirov A., Fozilov F., Umrzoqov T[1]., Abduhamidov A., Xudoynazarov S[2] larni keltirish mumkin. Bu kitoblar chiqqan davrlarda komputerlar, matematik tizimlar endigina oliy ta'limga kirib kelayotgan edi.

Fanni o'qtishning maqsadi: talabalarda turli masalalarni taqribiy yechishda algoritmlarning sifatini va imkoniyatlarini tahlil qilish hamda algoritmlarni yarata bilish ko'nikmalarini hosil qilishi, berilgan masalaning turini aniqlay olish, yechish usullarini to'g'ri qo'llay bilish va ushbu usullarning turg'unligini aniqlay bilish, dasturlash tillarini qo'llagan holda shaxsiy kompyuterlarda masalalarni yecha olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat.

---

[1] AbduqodirovA., FozilovF., Umrzoqov T., Hisoblash matematikasi va dasturlash. T.: O'qituvchi, 1995.-256 b.,
[2] Abduhamidov A., Xudoynazarov S. Hisoblash usullaridan mashqlar va laboratoriya ishlari. T.: O'zbekiston,1995.-224 b.

Fanni o'qtishning vazifalari: kurs mobaynida funksiyalarni yaqinlashtirish, taqribiy differensiyalsh va interpolyasiyalash, algebraning sonli usullari, oddiy va xususiy hosilali differensial tenflamalarni taqribiy echish usullarini, sonli hisoblash natijalarini malakali ravishda tahlil qilish usullarini o'rgatishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Talaba:

- hisoblash usullari o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiraladigan masalalar doirasida bakalavr xatoliklar va ularning manbai; chiziqli tenglamalar sistemasini yechishning aniq usullari; chiziqli tenglamalar sistemasini yechishning iterasion usullari; chiziqsiz tenglamalar va tenglamalar sistemasini taqribiy yechish usullari; matrisa xos son va xos vektorlarini taqribiy hisoblash usullari; integrallarni taqribiy hisoblash formulalarini keltirib chiqarish; oddiy differensial tenglamalarga qo'yilgan masalalarni sonli yechish usullari; xususiy hosilali differensial tenglamalarni sonli yechish usullari haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- xatoliklarni hisoblashni; matrisa normalarini hisoblashni; chiziqli tenglamalar sistemasini iterasiya usuli bilan yechishni; funksiyani yaqinlashtirish usullarini; integralni taqribiy hisoblash formulalarini; oddiy differensial tenglamalarga qo'yilgan masalalarni taqribiy yechish usullari xatoliklari bahosini; xususiy hosilali differensial tenglamalarga qo'yilgan masalani taqribiy yechish usullarini xatoliklarini bilishi va ulardan foydalana olishi;
- hisoblash usullari xatoliklarini baholash; taqribiy yechish usullarini tanlash; masalaning aniq va taqribiy yechimlari orasidagi farqni baholash; masalani taqribiy yechish uchun biror dasturlash tilidan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Masalan, chiziqsiz tenglamalar, interpolyasiya masalasi, integrallarni taqribiy hisoblash uchun 4-5- ta usul taklif etilgan. Bu talabaga o'zini o'zi nazorat qilish imkoniyatini beradi. Har bir mavzu asosiy tushunchalar, formulalar, savollar, usullarning matematik tizimlardagi yiriklashtirilgan algoritmlari bilan taminlangan.

Chiziqsiz tenglamalar va ularning sistemalarini taqribiy yechish usullari, universal oddiy iterasiya va Nyuton iterasiya usullari qaralgan va ularning matematik tizimlardagi yiriklashtirilgan algoritmlari keltirilgan.

Chiziqli algebra masalalarini taqribiy yechish usullari Gauss, Gauss-Jordan, progonka, oddiy iterasiya va Zeydel, relaksasiya iterasiya usullari qaralgan. Matrisaning xos sonlarini topishning det erminantni bevosita hisoblash, Krilov, Levyerrye, interpolyasiya, LU, QR-usullar uchun MathCAD, Mapleda yiriklashtirilgan algoritmlari keltirilgan.

Funksiyalarning interpolyasiyalash Nyuton, Lagranj va splayn-interpolyasiya formulalari, qoldiq hadlari qaralgan va usullarning MathCAD, Mapleda yiriklashtirilgan algoritmlarlari va ular asosida olingan sonli natijalar, grafik tasvirlar keltirilgan.

Funksiyalarni taqribiy integrallash Nyuton-Kotes, trapesiya, to'g'ri to'rtburchaklar, Simpson kvadratura formulalari, qoldiqlari qaralgan. Barcha usullarning MathCAD, Mapledagi alohida va umumlashgan yiriklashtirilgan algoritmlari keltirilgan.

ODT uchun Koshi masalasi mavzusida esa, takomillashgan, prognoz-korreksiya Eyler, Simpson, Runge-Kutta usullari qaralgan. ODT uchun chegara masalalar uchun kollokasiya, EKK, Galyorkin-Rits, chekli-ayirmalar usullari qaralangan.

XHDT mavzusida PDT, GDT va EDT lar uchun oshkor va oshkormas, Krank-Nikolson ayirmali sxemalari, Fredgolm, Volterr integral tenglamalar uchun uzluksiz va diskret iterasiya, kvadraturalar usullari qaralgan. Barcha usullar uchun matematik tizimlarda yiriklashtirilgan algoritmlar tuzilgan va natijalar olingan.

Matematika bu tashqi dunyoning geometrik formalari va sonli munosabaatlari haqidagi fandir (Katta ensikliopediyadan).

Ushbu o'quv qo'llanma hozirgi zamon "Hisoblash usullari" kursining Respublikamiz universitetlarining amaliy matematika va informatika, matematika yo'nalishlari bo'yicha qabul qilingan davlat ta'lim standartlari.

malaka talablari o'quv dasturlari asosida yozilgan va algebra va analizning, differensial va integral tenglamalarning taqribiy yechish usullarini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari o'quv qo'llanma mazkur kurs bo'yicha qo'shimcha mashg'ulotlar, talabalar bilan mustaqil individual ta'lim dasrlarini o'tkazishda foydalanish mumkin. Hisoblash usullari fan sifatida bevosita amaliy masalalarni yechish jarayonlarning komputer texnologiyalari asosida o'rganadi.

Ushbu o'quv qo'llanmani yozilishida Namangan davlat universiteti "Informatika", "Matematika", "Oliy matematika" kafedralarining professor-o'qituvchilarining maslahatlaridan foydalanildi. Mualliflar kitob qo'lyozmasi bilan tanishib, foydali maslahatlar bergan professorlar R.Ibragimov, N.Otaxonov, f-m.f.d. professor Yu.Apakovga, pedagogika fanlari doktori, dotsent X. Najmiddinovaga, dotsentlar A.Mashrabboyev, M.Xolmurodov, G.Yunusova, Sh. Boltaboev, M.Dadaxonov, M. Eshnazarovalarga chuqur minnatdorchilik izhor qilamiz.

O'quv qo'llanma bo'yicha takliflar, aniqlangan kamchiliklar bo'yicha fikr mulohazalaringizni afsona77@list.ru Elektron pochtasiga yuborishingizni so'raymiz. Siz bildirgan tanqidiy fikr-mulohazalaringizni kutib qolamiz.

Mualliflar

Amaliy mashg'ulot №1

Mavzu: Amal xatoliklarini baholash

Mashg'ulotning maqsadi: Talabalarda xatoliklarni baholash ko'nikmasini shakllantirish

Mashg'ulotning jihozi:

a) Ko'rgazmali material

b) Kompyuterning dasturiy ta'minoti

c) Matematik tizimlar

Mashg'ulot texnik vositalari: Pentium IV kompyuterlari (qo'shimcha qurilmalari) bilan jihozlangan kompyuter sinfi

Mashg'ulotning borishi:

a) Auditoriya va talabalarni darsga tayyorligini aniqlash

b) Yo'qlama qilish.

c) Talabalarda amal xatoliklari bo'yicha bilimlarini aniqlash

d) Yangi mavzuning bayoni: kompyuter va ko'rgazmali qurollar yordamida bayon etiladi (Aqliy hujum metodi)

e) Dars yakuni: Amaliy mashg'ulot bo'yicha har bir talabaga individual topshiriqlar beriladi.

Mavzuning qisqacha bayoni.

A-aniq son, a-uning taqribiy qiymati bo'lsin, yani, $a \approx A$. U holda taqribiy sonning absolyut va nisbiy xatoliklari tushunchalari kiritiladi.

1) $a \approx A$, $\Delta a = |A-a|$-absl ut xato, $\delta a = \Delta a / |a|$-nisbiy xato, $\Delta a \le \Delta_a$-limit absolyut xato, $\delta a \le \delta_a$- limit nisbiy xato. $A = a \pm \Delta_a$-kelishuv.

2) Funksiya va argument xatoliklari: $u = f(x) = f(x_1,...,x_n)$, $X_i = x_i \pm \Delta_{x_i}$.

$$\Delta_u = \sum_{i=1}^{n} \left|\frac{\partial f(x)}{\partial x_i}\right| \Delta_{x_i}$$ -funksiyaning limit absolut xatoligi,

$$\Delta_{x_i} = \Delta_u / (n \left|\frac{\partial f(x)}{\partial x_i}\right|), i = 1..n$$,-argumentning limit absolut xatoligi.

3) Yaxlitlash xatosi. $a = a_m a_{m-1} .. a_0, a_{-1} a_{-2} .. a_{-n}$, biror m+n+1 xonali haqiqiy son bo'lsin. Sonning o'nli yozuvidagi har qanday 0 dan farqli raqami *muhim raqam*

deyiladi. Ikkita muhim raqamlar orasidagi nollar ham muhim deyiladi, muhim raqam keyinadagi nol ham muhim raqam deyiladi. Nolga teng bo'lmagan raqamlar oldidagi nollar muhim bo'lmaydi. Agar shu yozuvda sonning absolyut xatosi verguldan keyingi n – raqamining bir birligidan oshmasa, (n – raqamining bir birligining yarmidan oshmasa) keng ma'noda m+n+1 ta *ishonchli raqamlarga* ega deyiladi (tor ma'noda m+n+1ta ishonchli raqamlarga ega deyiladi).

Taqribiy son shunday yoziladiki, unda ishonchli raqamlar saqlanadi. *Sonni biror raqamining 1 birligigacha aniqlik bilan yaxlitlash (keng ma'noda ishonchli raqamlar saqlash) uchun* shu raqamni o'ng tamondagi barcha raqamlar o'chiriladi. Natijada vujudga kelgan son o'chirilmay qolgan raqamning 1 birligidan oshmaydi.

Sonni biror raqamining 1 birligining yarmigacha aniqlik bilan yaxlitlash (tor ma'noda ishonchli raqamlar saqlash) uchun shu raqamdan o'ngda turgan raqamlar o'chiriladi va a) o'chirilgayotgan raqamlarning birinchisi 5 dan katta bo'lsa, saqlanayotgan oxirgi raqamga 1 qo'shiladi, b) o'chirilgayotgan raqamlarning birinchisi 5 dan kichik bo'lsa o'zgartirilmaydi, v) o'chirilayotgan raqamning birinchisi 5 bo'lib, qolganlarini ichida 0 dan farqlilari bo'lsa, oxirgi raqamga 1 qo'shiladi, g) o'chirilgayotgan raqamlarning birinchisi 5 va qolganlari 0 bo'lsa saqlanayotgan son toq bo'lsa unga 1 qo'shiladi, juft bo'lsa qo'shilmaydi.

Taqribiy sonning limit absolyut xatosi bilan ishonchli raqamlari orasida munosabat mavjud: $\delta_a \leq 10^{1-n} a_m^{-1}$ (keng ma'noda). Agar taqribiy son a ikkitadan ko'p, yani $n \geq 2$ ishonchli raqamlarga ega bo'lsa, ushbu baho o'rinli: $\delta_a \leq 0.5 * 10^{1-n} a_m^{-1}$ (tor ma'noda). Aksincha, agar sonning limit absolyut nisbiy xatosi ushbu

$$\delta_a \leq 2(a_m + 1)^{-1} * 10^{1-n}$$

tengsizlikni qanoatlantirsa, a son tor ma'noda n ta ishonchli raqamga ega.

Masalalarni Mathcadda yechish namunalari.

1-masala. $A = \sqrt{30} = 5.44722557505...$, $a = 5.447, \Delta_a = ?, \delta_a = ?$.

$$\Delta a=|A-a|=|5.44722557505-5.447|=0.000225...\le 0.00023=\Delta_a.$$

$$\delta_a=\frac{\Delta_a}{|a|}=\frac{0.00023}{5.447}=0.00004222507\le 0.00004223=\delta_a=0.004223\%.$$

$$A=\sqrt{30}=5.44722\pm 0.00023.$$

2-masala. Funksiya ko'rinishi va argumentlarning qiymati va xatoliklari berilgan, funksiyaning yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatosi topilsin.

$$u(m,n,k)=m^2n^3/\sqrt{k}\quad m=28.3\pm 0.02\quad n=7.45\pm 0.01\ k=0.678\pm 0.003.$$

Topish kerak: $\delta m, \delta n. \delta k, \Delta u=?$.

$$>u(m,n,k):=m^2n^3/\sqrt{k}\quad u=4.022E5$$

$$>\delta m:=\frac{\Delta m}{|m|}\quad \delta n:=\frac{\Delta n}{|n|}\quad \delta k:=\frac{\Delta k}{|k|}$$

$$\Delta u:=\left|\frac{\partial u(m,n,k)}{\partial m}\right|\Delta m+\left|\frac{\partial u(m,n,k)}{\partial n}\right|\Delta n+\left|\frac{\partial u(m,n,k)}{\partial k}\right|\Delta k$$

$$>\delta m=7.067E-4\quad \delta n=1.342E-3\quad \delta k=4.425E-3\quad \Delta u=7.653E-3$$

3-masala. Oldingi misolda funksiya berilgan va uning xatoligi berilgan, argumentlarning mumkin bo'lgan xatoliklari topilsin. $\Delta u=0.001, \delta m, \delta n, \delta k=?$. Ushbu formulaga ko'ra topamiz:

$$\Delta m:=\frac{\Delta u}{3\left|\frac{\partial f(x)}{\partial m}\right|}\quad \Delta n:=\frac{\Delta u}{3\left|\frac{\partial f(x)}{\partial n}\right|}\quad \Delta k:=\frac{\Delta u}{3\left|\frac{\partial f(x)}{\partial k}\right|}$$

$$\Delta m=0.036\quad \Delta n=6.335E-5\quad \Delta k=3.459E-3.$$

4-masala. Agar $r=15\pm 0,02, h=19,1\pm 0,05, \pi=3,14$, bo'lsa konus hajmi qanday absolut va nisbiy xatoliklar bilan hisoblanishini aniqlang.

Yechish. Ma'lumki,

$v=\pi r^2h/3=4498,1,\ \partial v/\partial\pi=r^2h/3=1432,5,\ \partial v/\partial r=2\pi rh=599,74,\ \partial v/\partial h=\pi r^2/3=235,5$ ekanligi uchun limit absolyut va nisbiy xatoliklar formulasiga asosan:

$$\Delta_v=\left|\frac{\partial v}{\partial\pi}\right|\Delta_\pi+\left|\frac{\partial v}{\partial r}\right|\Delta_r+\left|\frac{\partial v}{\partial h}\right|\Delta_h=26,06,\delta_v=\frac{26,1}{4498}=0,006\to v=4498\pm 26,1.$$

5-masala.To'g'ri to'rtburchakning uzini 0,1 limit absolyut xatolik bilan hisoblash uchun uning tomonlarini qanday limit absolyut xatolik bilan hisoblash zarur?, $a \approx 4, b \approx 5$ m.

Yechish. Ravshanki, $S = ab, \Delta_S = 0{,}1$. Xatoliklar nazariyasining teskari masalasi formulalaridan topamiz:

$$\left|\frac{\partial S}{\partial x_i}\right| \Delta_{x_i} = \frac{\Delta_S}{n}, \Delta_{x_i} = \frac{\Delta_S}{n\,|\partial S/\partial x_i|}, \ \frac{\partial S}{\partial a} = b = 5, \frac{\partial S}{\partial b} = a = 4, \ \Delta_a = \frac{0{,}1}{2*5} = 0{,}01, \ \Delta_b = \frac{0{,}1}{2*4} = 0{,}0125.$$

Matematik tizimlarda grafiklar yaratish.

Mathcadda $f(x) = x\sin(x), g(x) = x\cos(x)$ egri chiziqlar grafiklarini chizamiz:

$f(x) := x\sin(x) \quad g(x) := x\cos(x)$ // *functsiyalarni berish*

$a := 0 \quad b := \pi \quad n := 100 \quad h := \dfrac{b-a}{n} \quad x := a, a+h..b$ // *oraliq, nuqtalar soni, qadamlar*



1.1-rasm.Mathcaddagi chizmasi

Insert (Alt+I)>Graph>X-Y Plot (Shift+@) menuning chiziqlar chizish qismini ochilsa shablon chiqadi. Undan so'ng quyi marker o'rniga x ni, chap yonboshdagi marker o'rniga funktsiyalar nomini kiritamiz. Bir necha funktsiya vergul bilan ajratiladi. Kursorni grafikdan tashqariga olib chiqilsa grafiklarni ekranga chiqaradi. Graph>Surface Plot (Ctrl+2) komandasi orqali sirtlarni chizadi.

Mapleda egri chiziqlar grafiklarini plot komandasi bilan chizish.

Bitta grafikda bir necha chiziqni chizish mumkin.

Misol1. plot([sin(x), cos(x), x = -3.14 .. 3.14,['red','blue]');



1.2-rasm. Mapledagi chizmasi

Qo'shimcha misollar yechish.

1) $X = m^2 n^3 / \sqrt{k}, m = 28.3 \pm 0.02, n = 7.45 \pm 0.01, k = 0.678 \pm 0.003$;

2) $N = (n-1)(m+n)/(m-n)^2, m = 5.72 \pm 0.02, n = 3.0567 \pm 0.0001$;

3) $V = \pi h^2 (R - h/3), h = 11.8 \pm 0.02, R = 23.67$.

Yechish. 1) Quyidagi ishlarni bajaramiz:

$m^2 = 800,9; n^3 = 413,5; \sqrt{k} = 0.8234; X = 800.9 * 413.5 / 0.8234 = 402200 = 4.02 * 10^5$.

$\delta_m = 0.02/28.3 = 0.00071; \delta_n = 0.01/7.45 = 0.00135; \delta_k = 0.003/0.678 = 0.00443.$

$\delta_X = 2\delta_m + 3\delta_n + 0.5\delta_k = 0.00142 + 0.00405 + 0.00222 = 0.00769 = 0.77\%$.

Shunday qilib topamiz: $\Delta_X = 4.02 * 10^5 \mp 3.1 * 10^3. \delta_X = 0.77\%$.

Mavzu bo'yicha topshriqlar

1-misol. $f(n) = A_n = \sqrt[k]{n}, k = 2,3; n = 1..N,$ funksiya berilgan. Uni 2, 4, 6, 8 xona bilan yaxlitlab funksiyaning absolyut va nisbiy xatoliklari topilsin.

Izoh 1. Agar $n = i^2 \Rightarrow k = 3$ va $n \neq i^2 \Rightarrow k = 2$ deb olinishi kerak.

Izoh 2. Agar n=1 bo'lsa $A = \pi = 3,1415926535897932384 62$ deb olinsin.

2-misol. Funksiya qiymatining, asolyut, nisbiy xatoliklar topilsin.

Ro'yxatdagi tartib raqam bo'yicha topshriqlar tanlanadi.

1.1-tablisa

№	Funksiya	1-o'zgaruvchi	2-o'zgaruvchi	3-o'zgaruvchi	4-o'zgaruvchi
1	$u=ab/\sqrt[3]{c}$	3.85 ± 0.01	5.86 ± 0.02	4.82 ± 0.003	0.82 ± 0.005
2	$u=[(a+b)c/d^2$	3.85 ± 0.01	5.86 ± 0.02	4.82 ± 0.003	0.82 ± 0.005
3	$u=(a^2+4ab+b^2)/(c+d)^2$	3.85 ± 0.01	5.86 ± 0.02	4.82 ± 0.003	0.82 ± 0.005
4	$u=\sqrt{ab}/\sqrt[3]{c}$	3.85 ± 0.01	5.86 ± 0.02	4.82 ± 0.003	0.82 ± 0.005
5	$u=a^3(b+c)/\sqrt[3]{d}$	3.85 ± 0.01	5.86 ± 0.02	4.82 ± 0.003	0.82 ± 0.005
6	$u=(a+b)c^3/\sqrt[3]{d}$	3.85 ± 0.01	5.86 ± 0.02	4.82 ± 0.003	0.82 ± 0.005
7	$u=\sqrt{ab}/\sqrt[3]{cd}$	3.85 ± 0.01	5.86 ± 0.02	4.82 ± 0.003	0.82 ± 0.005
8	$u=(a+b)c/d^2$	3.85 ± 0.01	5.86 ± 0.02	4.82 ± 0.003	0.82 ± 0.005
9	$u=(a+b)^2/(c^2+d^2)$	3.85 ± 0.01	5.86 ± 0.02	4.82 ± 0.003	0.82 ± 0.005
10	$u=a^2b/\sqrt[3]{c}$	3.85 ± 0.01	5.86 ± 0.02	4.82 ± 0.003	0.82 ± 0.005
11	$u=(a+b)/\sqrt[3]{c-d}$	3.85 ± 0.01	5.86 ± 0.02	4.82 ± 0.003	0.82 ± 0.005
12	$v=hS(1+a/A+a^2/A^2)/3$	3.85 ± 0.01	5.86 ± 0.02	4.82 ± 0.003	0.82 ± 0.005
13	$u=ab^3/\sqrt[3]{c}$	3.85 ± 0.01	5.86 ± 0.02	4.82 ± 0.003	0.82 ± 0.005
14	$u=(a-b)\sqrt[3]{c}/\sqrt{m+n}$	3.85 ± 0.01	5.86 ± 0.02	4.82 ± 0.003	0.82 ± 0.005
15	$v=h^2(a^2+4ab+b^2)/18(a+b)^2$	3.85 ± 0.01	5.86 ± 0.02	4.82 ± 0.003	0.82 ± 0.005
16	$u=ab/c^2$	3.85 ± 0.01	5.86 ± 0.02	4.82 ± 0.003	0.82 ± 0.005
17	$u=(a+b)/\sqrt{(c-d)m}$	3.85 ± 0.01	5.86 ± 0.02	4.82 ± 0.003	0.82 ± 0.005
18	$v=\pi h/(3a^2+h^2)/6$	3.85 ± 0.01	5.86 ± 0.02	4.82 ± 0.003	0.82 ± 0.005
19	$v=\pi^2Dd^2/4$	3.85 ± 0.01	5.86 ± 0.02	4.82 ± 0.003	0.82 ± 0.005
20	$u=\pi\sqrt{D^4-d^4}/64$	3.85 ± 0.01	5.86 ± 0.02	4.82 ± 0.003	0.82 ± 0.005
21	$u=a^2(1+2b/c+g^2/c^2)$	3.85 ± 0.01	5.86 ± 0.02	4.82 ± 0.003	0.82 ± 0.005
22	$u=a^2b/c^3$	3.85 ± 0.01	5.86 ± 0.02	4.82 ± 0.003	0.82 ± 0.005
23	$u=m\sqrt{a-b}/(c+d)$	3.85 ± 0.01	5.86 ± 0.02	4.82 ± 0.003	0.82 ± 0.005
24	$v=\pi h(2D^2+Dd+0.75d^2)$	3.85 ± 0.01	5.86 ± 0.02	4.82 ± 0.003	0.82 ± 0.005

25	$u=\sqrt{cd/b}$	3.85±0.01	5.86±0.02	4.82±0.003	0.82±0.005
26	$u=\sqrt[3]{a-b}/(m(m-a))$	3.85±0.01	5.86±0.02	4.82±0.003	0.82±0.005
27	$u=\sqrt{p(p-a)(p-b)(p-c)}$	3.85±0.01	5.86±0.02	4.82±0.003	0.82±0.005
28	$u=Qc^3/48E$	3.85±0.01	5.86±0.02	4.82±0.003	0.82±0.005
29	$q=(2n-1)^2(x+y)/(x-y)$	3.85±0.01	5.86±0.02	4.82±0.003	0.82±0.005
30	$v=\beta(\alpha b-\beta a)/b^2(b+\beta)$	3.85±0.01	5.86±0.02	4.82±0.003	0.82±0.005

Nazariy savollar?

1. Absolyut xato, chegaraviy absolyut xato nima, nisbiy xato, chegaraviy nisbiy xato nima?

2. Nisbiy va absolyut xatoliklar orasida qanday munosabat mavjud?

3. Funksiya va argumentlar xatoliklari orasida qanday munosbat mavjud?

4.Xatoliklar nazariyasining to'g'ri va teskari masalasiga doir elementar geometriyadan misollar keltiring.

Amaliy mashg'ulot №2

Mavzu: Chiziqli tenglamalar sistemasini iterasiya usuli bilan yechish.

Mashg'ulotning maqsadi: Talabalarda chiziqli tenglamalar sistemasini ko'nikmasini shakllantirishdan iborat.

Mashg'ulotning jihozi:

a) Ko'rgazmali material

b) Kompyuterning dasturiy ta'minoti

c) Matematik tizimlar

Mashg'ulot texnik vositalari: Pentium IV kompyuterlari (qo'shimcha qurilmalari) bilan jihozlangan kompyuter sinfi

Mashg'ulotning borishi:

a) Auditoriya va talabalarni darsga tayyorligini aniqlash

b) Yo'qlama qilish.

c) Talabalardan o'tilgan mavzularni takrorlash

d) Yangi mavzuning bayoni: kompyuter va ko'rgazmali qurollar yordamida bayon etiladi (Assesment metodi)

e) Dars yakuni: Amaliy mashg'ulot bo'yicha har bir talabaga individual topshiriqlar beriladi.

Mashg'ulotning qisqacha bayoni.

1. Chiziqli algebra masalalari: $Ax=b, B=A^{-1}, x=A^{-1}b, \Delta=\det(A), Ax=\lambda x, x, \lambda=?$.

2.CHATSni yechish usullari: Gauss, teskari matrisa usuli, Kramer qoidasi, Xoleskiy usullari.

3.Uch diagonalli sistemani yechish uchun haydash (progonka) usuli $Ax=b$:

$$b_0x_0+c_0x_1=d_0, a_ix_{i-1}+b_ix_i+c_ix_{i+1}=d_i,\ i=1,...n-1, a_nx_{n-1}+b_nx_n=d_n:$$

$$\begin{bmatrix} b_0 & c_0 & 0 & . & 0 & 0 & 0 \\ a_1 & b & c & . & 0 & 0 & 0 \\ 0 & a & b & . & 0 & 0 & 0 \\ . & . & . & . & . & . & . \\ 0 & 0 & 0 & . & b_{n-2} & c_{n-2} & 0 \\ 0 & 0 & 0 & . & a_{n-1} & b_{n-1} & c_{n-1} \\ 0 & 0 & 0 & . & 0 & a_n & b_n \end{bmatrix} * \begin{bmatrix} x_0 \\ x_1 \\ x_2 \\ . \\ x_{n-2} \\ x_{n-1} \\ x_n \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} d_0 \\ d_1 \\ d_2 \\ . \\ d_{n-2} \\ d_{n-1} \\ d_n \end{bmatrix}$$

Yechimlar orasida quyidagi bog'lanish mavjud: $x_i=u_{i+1}x_{i+1}+v_{i+1}$, i=n-1,..,0. Haqiqatan ham, 0- va n-tenglamalarda ikkitadan nomalumlar istirok etayapti. 0-tenlamani 1-tenglamaga, 1-tenglamani 2-tenglamaga, va hokazo, i-tenglamani i+1-tenglamaga qo'yib, i=0..n-1, bunday munosabatlarni olamiz. $u_i, v_i, i=0..n$ sonlar haydash (progonka) koeffisientlari deyiladi. Ular quyidagicha formulalar bilan topiladi (to'gri yurish):

$$u_{i+1}=\frac{-c_i}{a_iu_i+b_i}, v_{i+1}=\frac{d_i-a_iv_i}{a_iu_i+b_i}, i=0,..,n-1, u_0=v_0=0;$$

So'ng, no'malumlar quyidagi formulalar bilan topiladi (teskari yurish):

$$x_n=\frac{d_n-a_nv_n}{a_nu_n+b_n},\ x_i=u_{i+1}x_{i+1}+v_{i+1},\ i=n-1,..,0$$

4.Iterasiya usuli: taqribiy yechim $x^{(k)}\approx\xi, \lim_{k\to\infty}x^{(k)}=\xi, f(x^{(k)})=Ax^{(k)}-f\to 0$:

$Ax=b \Leftrightarrow x=Cx+d, x^k=Cx^{k-1}+d. \lim_{k\to\infty}x^k=\xi, A\xi=b$.bu yerda $x=g(x)=Cx+d$-iterator, yani iterasiyalovchi funksiya.

Yakobi iterasiya usuli: $x_i^{(k)} = (b_i - \sum_{j \neq i}^{n} a_{ij} x_j^{(k-1)}) / a_{ii}$, k=1,2,....

Zeydel iterasiya usuli: $x_i^{(k)} = (b_i - \sum_{j=1}^{i-1} a_{ij} x_j^{(k)} - \sum_{j=i+1}^{n} a_{ij} x_j^{(k-1)}) / a_{ii}$ k=1,2,....

5.Yaqinlashish haqidagi asosiy teoremalar.

Teorema1. Agar $q = \|C\| < 1$ bo'lsa iterasiyalar yaqinlashadi: $x^k = Cx^{k-1} + d, \lim_{k \to \infty} x^k = \xi, A\xi = b$

Teorema2. Agar S salmoqli bosh diognalga ega bo'lsa Yakobi, Zeydel iterasiya usullari yaqinlashadi. Zeydel usuli Yakobi usulidan tezroq yaqinlashadi.

Teorema3. Agar $Ax = b$ CHATSda matrisa A simmetrik, musbat aniqlangan bo'lsa oddiy iterasiya, Zeydel iterasiya usullari yaqinlashadi. Bunday matrisali CHATS normal CHATS deyiladi.

Ixtiyoriy $A_1 x = b_1$ CHATSni normal ko'rinishga quyidagicha keltirish mumkin: $A_1^* A_1 x = A_1^* b_1 \Leftrightarrow Ax = b, A = A_1^* A_1, b = A_1^* b_1$ (Gauss almashtirishi).

Teorema4. $q = \|C\| < 1 \Leftrightarrow |\lambda| < 1, \forall \lambda : Cx = \lambda x$.

Teorema5. Iterasiyalarning qoldiq hadlari uchun ushbu baholar o'rinli:

$$\|\xi - x^{(k)}\| \le \|C\|^k \|\xi - x^{(k-1)}\|, \|\xi - x^{(k)}\| \le \frac{\|C\|}{1 - \|C\|} \|x^{(k)} - x^{(k-1)}\|, \|C\| = \max_{\|x\|=1} \|Cx\|.$$

6. Vektor va matrisalarning mos normalari.

$\|A\| = \max_{\|x\|=1} \|Ax\|$ miqdor $x \in R^n$ vektor normasiga mos matrisaning normasi deyiladi. Quyida vektorlar, matrisalarning mos normalarini ushbu jadvalda keltiramiz:

2.1-tablisa

№	Vektor normasi	Mos matrisa normasi	iterasiya usulining yaqinlashish sharti
1	$\|x\|_\infty = \max_{i=1..n} \|x_i\|$	$\|A\|_\infty = \max_{i=1..n} \sum_{j=1}^{n} \|a_{ij}\|$	$\sum_{j=1, j \neq i}^{n} \|a_{ij}\| < \|a_{ii}\|, i = 1..n$
2	$\|x\|_1 = \sum_{j=1}^{n} \|x_j\|$	$\|A\|_1 = \max_{j=1..n} \sum_{i=1}^{n} \|a_{ij}\|$	$\sum_{i=1, i \neq j}^{n} \|a_{ij}\| < \|a_{jj}\|, j = 1..n$

3	$\|x\|_2=\sqrt{\sum_{j=1}^{n}\|x_j\|^2}$	$\|A\|_2=\sqrt{\sum_{i=1}^{n}\sum_{j=1}^{n}\|a_{ij}\|^2}$	$\|A\|_2<1$
4	$\|x\|_3=\sqrt{\sum_{j=1}^{n}\|x_j\|^2}$	$\|A\|=\max_{i=1,n}\sqrt{\lambda_{max}},\lambda_{max}=\max \|A\|(A^T A)$	

7. A matrisa uchun tasvir: $A:=D-L-U$:

$$L=-\begin{bmatrix}0&0&0&0\\a_{21}&0&0&0\\a_{31}&a_{32}&.&0\\a_{n1}&a_{n2}&a_{nn-1}&0\end{bmatrix},U=-\begin{bmatrix}0&a_{12}&.&a_{1n}\\0&0&.&a_{2n}\\0&0&.&a_{n-1n}\\0&0&0&0\end{bmatrix},D=\begin{bmatrix}a_{11}&0&0&0\\0&a_{12}&0&0\\0&0&.&0\\0&0&0&a_{nn}\end{bmatrix}.$$

8. Sodda iterasiya (Yakobi) usuli:

$$x_i^{(k)}=\frac{1}{a_{ii}}(b_i-\sum_{j\neq i}^{n}a_{ij}x_j^{(k-1)}),\ k=0,1,....$$

$$x^{(k)}=dJ+CJx^{(k-1)},dJ=D^{-1}b,CJ=D^{-1}(L+U),k=0,1,....$$

9. Zeydel usuli:

$$x_i^{(k)}=\frac{1}{a_{ii}}(b_i-\sum_{j=1}^{i-1}a_{ij}x_j^{(k)}-\sum_{j=i+1}^{n}a_{ij}x_j^{(k-1)}),\ k=0,1,....\ .$$

$$x^{(k)}=dS+CSx^{(k-1)},dS=(D-L)^{-1}b,CS=(D-L)^{-1}U,k=0,1,...$$

10. Relaksasiya usuli.

$C\Omega:=(D-\omega L)^{-1}[(1-\omega)D+\omega U]\quad d\Omega:=\omega(D-\omega L)^{-1}b\quad z^{<k+1>}:=d\Omega+C\Omega z^{<k>}$

Topshiriqni Mathcad dasturida bajarish.

$$A:=\begin{bmatrix}40&1&1&1\\2&40&2&1\\2&2&40&2\\1&1&2&40\end{bmatrix}\qquad b:=\begin{bmatrix}43\\45\\46\\44\end{bmatrix}$$

Ushbi misolni mathcad dasturida yeching.

Mathcad dasturida CHATSni yechish uchun ushbu ichki funksiyalar mavjud: lsolve(A,b), rref(B), B=[A|b],Given..Find, $x=A^{-1}b$, Minimize, Mineer, augment, submatrix, stack, norm1, norm2, norme. Ushbu ishki buyruqlar orqali misolni matcad dasturida yechilgan.

1. Gauss usulining ichki funksiyasi rref(A) yordamida yechimni topish

$$ORIGIN := 1 \quad B := augment(A, B) \quad B = \begin{bmatrix} 40 & 1 & 1 & 1 & 43 \\ 2 & 40 & 2 & 1 & 45 \\ 2 & 2 & 40 & 2 & 46 \\ 1 & 1 & 2 & 40 & 44 \end{bmatrix} \quad // \textit{ kengaytirilgan matrisa}$$

$$s := rref(B) \quad s = \begin{bmatrix} 1 & 0 & 0 & 0 & 1 \\ 0 & 1 & 0 & 0 & 1 \\ 0 & 0 & 1 & 0 & 1 \\ 0 & 0 & 0 & 1 & 1 \end{bmatrix} \quad x := submatrix(B,1,4,5,5) = \begin{bmatrix} 1 \\ 1 \\ 1 \\ 1 \end{bmatrix} \quad // \textit{ yechimni ajratish}$$

2. Teskari matrisa usulida yechimni topish

$$A := \begin{bmatrix} 40 & 1 & 1 & 1 \\ 2 & 40 & 2 & 1 \\ 2 & 2 & 40 & 2 \\ 1 & 1 & 2 & 40 \end{bmatrix} \quad b := \begin{bmatrix} 43 \\ 45 \\ 46 \\ 44 \end{bmatrix} \quad y := A^{-1}b \quad D := |A| \quad D = 2.539 * 10^6 \quad y^T = [1\ 1\ 1\ 1]$$

3. Ichki funksiya lsolve(A,b) yordamida yechimni topish:

$$r := lsolve(A, b) \quad r^T = [1\ 1\ 1\ 1]$$

4. Kramyer qoidasi:

$$A1 := \begin{bmatrix} 43 & 1 & 1 & 1 \\ 45 & 40 & 2 & 1 \\ 46 & 2 & 40 & 2 \\ 44 & 1 & 2 & 40 \end{bmatrix} A2 := \begin{bmatrix} 40 & 43 & 1 & 1 \\ 2 & 45 & 2 & 1 \\ 2 & 48 & 40 & 2 \\ 1 & 44 & 2 & 40 \end{bmatrix} A3 := \begin{bmatrix} 40 & 1 & 43 & 1 \\ 2 & 40 & 45 & 1 \\ 2 & 2 & 48 & 2 \\ 1 & 1 & 44 & 40 \end{bmatrix} A4 := \begin{bmatrix} 40 & 1 & 1 & 43 \\ 2 & 40 & 2 & 45 \\ 2 & 2 & 2 & 48 \\ 1 & 1 & 2 & 44 \end{bmatrix}$$

$$D := |A| \quad D1 := |A1| \quad D2 := |A2| \quad D3 := |A3| \quad D4 := |A4| \quad i := 1..4 \quad z_i := D_i / D \quad z = [1\ \ 1\ \ 1\ \ 1]$$

5. Teskari matrisa va uni tekshirib ko'rish:

$$C = \begin{bmatrix} 0.0251 & -0.0006 & -0.0006 & -0.0006 \\ -0.0012 & 0.0251 & -0.0012 & -0.0005 \\ -0.0012 & -0.0012 & 0.0251 & -0.0012 \\ -0.0005 & -0.0006 & -0.0012 & 0.0251 \end{bmatrix} C * A = \begin{bmatrix} 1 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 1 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 1 \end{bmatrix} A * C = \begin{bmatrix} 1 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 1 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & 1 \end{bmatrix}$$

6. Xoleskiy usuli. A matrisani LU usulda ko'paytuvchilarga ajratish:

$$Q := lu(A) \quad Q = \begin{bmatrix} 1 & 0 & 0 & 0 & 40 & 1 & 1 & 1 \\ 0.05 & 1 & 0 & 0 & 0 & 39.95 & 1.95 & 0.95 \\ 0.05 & 0.049 & 1 & 0 & 0 & 0 & 39.855 & 1.904 \\ 0.025 & 0.024 & 0.048 & 1 & 0 & 0 & 0 & 39.86 \end{bmatrix}$$

Bu yerda L-bosh diogonali 1 ga teng chap quyi uchburchak, U-o'ng uqori uchburchak matrisalar. $Ax = b$ sistema quyidagicha yechiladi:

$$Ax = LUx = b \Rightarrow Ly = b, Ux = y,$$

L:=submatrix(Q,1,4,5,8) $L=\begin{bmatrix}1 & 0 & 0 & 0\\ 0.05 & 1 & 0 & 0\\ 0.05 & 0.049 & 1 & 0\\ 0.025 & 0.024 & 0.048 & 1\end{bmatrix}$ $y:=L^{-1}*b$

U:=submatrix(Q,1,4,9,12) $U=\begin{bmatrix}40 & 1 & 1 & 1\\ 0 & 39.95 & 1.95 & 0.95\\ 0 & 0 & 39.855 & 1.904\\ 0 & 0 & 0 & 39.86\end{bmatrix}$ $x:=U^{-1}*y$ $x=\begin{bmatrix}1\\1\\1\\1\end{bmatrix}$

7. Uch diognalli CHATS uchun progonka usuli.

$$n:=3\quad A:=\begin{bmatrix}40 & 1 & 0 & 0\\ 2 & 40 & 2 & 0\\ 0 & 3 & 40 & 3\\ 0 & 0 & 4 & 40\end{bmatrix}\quad d:=\begin{bmatrix}41\\44\\46\\44\end{bmatrix}\quad a_0:=0\ c_n:=0\ i:=0..n\ b_i:=A_{i,i}\ b^T=\begin{bmatrix}40 & 40 & 40 & 40\end{bmatrix}$$

$i:=0..n-1\ c_i:=A_{i,i+1}\ c^T=\begin{bmatrix}1 & 2 & 3 & 0\end{bmatrix}\ ,i:=1..n\ a_i:=A_{i,i-1}\ a^T=\begin{bmatrix}0 & 2 & 3 & 4\end{bmatrix}$

$x:=A^{-1}d\ x=\begin{bmatrix}1 & 1 & 1 & 1\end{bmatrix}$

$u_0:=0\ v_0:=0\ i:=0..n-1\ u_{i+1}:=-c_i/(a_iu_i+b_i)\ v_{i+1}:=(d_n-a_nv_n)/(a_iu_i+b_i)$

$x_n:=(d_n-a_nv_n)/(a_nu_n+b_n)\ x_n=1\ i:=1..n-1\ x_{i+1}:=u_{i+1}x_{i+1}+v_{i+1}\ x^T=\begin{bmatrix}1 & 1 & 1 & 1\end{bmatrix}$

8. Determinantni hisoblash: $D:=|A|\ d:=|C|\ D*d=1\ D=2.539*10^6$

9. Yakobi (sodda) va Zeydel, relaksasiya va iterasiya usullari.

$$A:=\begin{bmatrix}40 & 1 & 1 & 1\\ 2 & 40 & 2 & 1\\ 2 & 2 & 40 & 2\\ 1 & 1 & 2 & 40\end{bmatrix}\quad b:=\begin{bmatrix}43\\45\\46\\44\end{bmatrix}\quad E:=identity(4)\quad E=\begin{bmatrix}1 & 0 & 0 & 0\\ 0 & 1 & 0 & 0\\ 0 & 0 & 1 & 0\\ 0 & 0 & 0 & 1\end{bmatrix}\quad x^{<1>}:=\begin{bmatrix}0\\0\\0\\0\end{bmatrix}\quad y^{<1>}:=x^{<1>}$$

$$D:=\begin{bmatrix}40 & 0 & 0 & 0\\ 0 & 40 & 0 & 0\\ 0 & 0 & 40 & 0\\ 0 & 0 & 0 & 40\end{bmatrix}\quad L:=\begin{bmatrix}0 & 0 & 0 & 0\\ -2 & 0 & 0 & 0\\ -2 & -2 & 0 & 0\\ -1 & -1 & -2 & 0\end{bmatrix}\quad U:=\begin{bmatrix}0 & -1 & -1 & -1\\ 0 & 0 & -2 & -1\\ 0 & 0 & 0 & -2\\ 0 & 0 & 0 & 0\end{bmatrix}\quad k:=0..10$$

$TJ:=D^{-1}(L+U)\ dJ:=D^{-1}b\ x^{<k+1>}:=dJ+TJx^{<k>}$ (*Yakobi usuli*)

$TS:=(D-L)^{-1}U\ dS:=(D-L)^{-1}b\ y^{<k+1>}:=dS+TSy^{<k>}$ (*Zeydel usuli*)

$T\Omega:=(D-\omega L)^{-1}[(1-\omega)D+\omega U]\ d\Omega:=\omega(D-\omega L)^{-1}b\ z^{<k+1>}:=d\Omega+T\Omega z^{<k>}$ (*relaksasiya usuli*)

Izoh. Relaksasiya usuli quyidagicha yaratiladi:

$$Ax=b\Rightarrow(D-L-U)x=b\Rightarrow\omega(D-L-U)x=\omega b\Rightarrow-\omega Lu=\omega(U-D)x+\omega b\Rightarrow$$
$$Dx-\omega Lux=Dx+\omega(U-D)x+\omega b\Rightarrow(D-\omega L)x=[(1-\omega)D+\omega U]x+\omega b\Rightarrow$$
$$x=T\Omega x+d\Omega, T\Omega=(D-\omega L)^{-1}[(1-\omega)D+\omega U], d\Omega=\omega(D-\omega L)^{-1}b\Rightarrow$$
$$x^{(k)}=d\Omega+T\Omega x^{(k-1)}, k=1,2...$$

Bu iterasiyalarning yaqinlashish sharti: A matrisa salmoqli diognalga ega.

2.2-tablisa. Yakobi usuli

		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
x =	1	0	1.075	0.991	1.001	1	1	1	1	1	1
	2	0	1.125	0.986	1.002	1	1	1	1	1	1
	3	0	1.15	0.984	1.002	1	1	1	1	1	1
	4	0	1.1	0.988	1.001	1	1	1	1	1	...

2.3-tablisa. Zeydel usuli

		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
y =	1	0	1.075	0.997	1	1	1	1	1	1	1
	2	0	1.071	0.997	1	1	1	1	1	1	1
	3	0	1.07	1.001	1	1	1	1	1	1	1
	4	0	0.993	1	1	1	1	1	1	1	...

2.4-tablisa Relaksasiya usuli

		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
z =	1	0	0.86	0.981	0.998	1	1	1	1	1	1
	2	0	0.866	0.983	0.998	1	1	1	1	1	1
	3	0	0.868	0.986	1	1	1	1	1	1	1
	4	0	0.811	0.963	0.993	0.999	1	1	1	1	...

10.CHATSni normal holga keltirib iterasiya usulini qo'llash. $Ax=b$ sistemada A matrisa salmoqli diognalga ega bo'lmasa, uni normal holga keltiriladi: $A^T Ax = A^T b$ (Gauss almashtirishi) va yangi CHATS ga Yakobi yoki Zeydel iterasiya usuli qo'llaniladi. Normal CHATS da A matrisa quyidagi 2 ta xossaga ega:

1) A matrisa simmetrik: $(Ax, y) = (x, Ay), \forall x, y \in R^n$;

2) A matrisa musbat aniqlangan: $A^T A \geq 0 \Leftrightarrow (A^T Ax, x) = (Ax, Ax) \geq 0, \forall x \in R^n$.

Ixtiyoriy $Ax=b$ CHATS ni normal ko'rinishga quyidagicha keltiriladi: $A^T Ax = A^T b$, va yangi CHATS ga iterasiya usullari qo'llaniladi.

Misol:

$$A := \begin{bmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 2 & 1 & 4 \\ 3 & 2 & 1 \end{bmatrix} \; b := \begin{bmatrix} 6 \\ 7 \\ 6 \end{bmatrix} \; A^T = \begin{bmatrix} 1 & 2 & 3 \\ 2 & 1 & 2 \\ 3 & 4 & 1 \end{bmatrix} \; C := A^T A \;\; d := A^T b \;\; C = \begin{bmatrix} 14 & 10 & 14 \\ 10 & 9 & 12 \\ 14 & 12 & 26 \end{bmatrix} \; d = \begin{bmatrix} 38 \\ 31 \\ 52 \end{bmatrix}$$

$$D:=\begin{bmatrix}14&0&0\\0&9&0\\0&0&26\end{bmatrix}\quad L:=\begin{bmatrix}0&0&0\\-10&0&0\\-14&-12&0\end{bmatrix}\quad U:=\begin{bmatrix}0&-10&-14\\0&0&-12\\0&0&0\end{bmatrix}$$

$$CC:=(D-L)^{-1}U \quad dC:=(D-L)^{-1}d \quad t:=\begin{bmatrix}0\\0\\0\end{bmatrix} \quad k:=1..30 \quad t^{<k+1>}:=dC+CC\,t^{<k>} \quad t=$$

2.5-tablisa

$t=$	22	23	24	25	26	27	28	29	30	31
1	0.997	0.997	0.998	0.998	0.999	0.999	0.999	0.999	1	1
2	1.003	1.002	1.002	1.001	1.001	1.001	1.001	1.001	1	1
3	1	1	1	1	1	1	1	1	1	...

Topshiriqni Maple dasturida yechish.

Yuqoridagi barcha iterasiya usulari Maple tizimida ham bajarilishi mumkin. Maple tizimida masalani 2 xil usulda yechish mumkin: komandalar yordamida va interaktiv usul yordamida. Biz interaktiv usulda yechishni ko'ramiz. Maple tizimining interaktiv imkoniyatlari Tools>Numerical Analysis>Iterative Formula komandasini menyu yordamida berish bilan bajariladi. Natijada muloqot oynasi ochiladi va unda zarur komandalarni sichqoncha bilan tanlash mumkin. Bu yerda matrisaning o'lchami, uning o'zini, Chiziqli sistemaning o'ng tomon vektorini, boshlang'ich iterasiya vektorini, iterasiyalar sonini, iterasiya usullaridan Yakobi, Zeydel, relaksasiyani tanlash mumkin. Oynada ayrim parametrlarni chiqarishni berkitish mumkin. Eng quyida Maple komandalarini ko'rsatish maydonchasi mavjud. Barcha parametrlar tanlangach Computer komandasi bilan barcha tanlovlar asosida hisoblashni ishga tushirish mumkin. Natijada biz quyidagi yechimni olamiz:

$$A:=\begin{bmatrix}4&1&2\\1&3&1\\2&1&4\end{bmatrix} b=\begin{bmatrix}7\\5\\7\end{bmatrix} x_0=\begin{bmatrix}0\\0\\0\end{bmatrix} L=\begin{bmatrix}0&0&0\\-1&0&0\\-2&-1&0\end{bmatrix} U=\begin{bmatrix}0&-1&-2\\0&0&-1\\0&0&0\end{bmatrix} D=\begin{bmatrix}4&0&0\\0&3&0\\0&0&4\end{bmatrix}$$

$$x_{(k+1)}=Tx_{(k)}+c \quad T=(D-L)^{-1}U=\begin{bmatrix}0&-.2500&-.5000\\0&.8333e-1&-.1667\\0&.1042&.2917\end{bmatrix} C=(D-L)^{-1}b=\begin{bmatrix}1.750\\1.083\\.6042\end{bmatrix} x_{(10)}=\begin{bmatrix}1.000\\1.000\\1.000\end{bmatrix}$$



2.1-rasm

Maple dasturida CHATSni yechish uchun universal komandalar solve, fsolve, minimize ichki funksiyalari mavjud.

Misol 1.

with(linalg);

A:=matrix(2, 2, [[1, 2], [2, 1]]); B := inverse(A); $A := \begin{bmatrix} 1 & 2 \\ 2 & 1 \end{bmatrix}$ $B := \begin{bmatrix} -1/3 & 2/3 \\ 2/3 & -1/3 \end{bmatrix}$

b := vector(2, [3, 3]); // $b := [3 \ \ 3]$ x := linsolve(A, b); // $x := [1 \ \ 1]$

y := multiply(B, b); // $y := [1 \ \ 1]$

eqs := {t1+2*t2-3, 2*t1+t2-3}; // $eqs := \{t1 + 2 * t2 - 3, 2 * t1 + t2 - 3\}$

z := solve(eqs, [t1, t2]); // $z := [[t1 = 1, \ t2 = 1]]$

Misol. 2. Chiziqli tenglamalar sistemasini yechish.

s1:={2*x+y=6, x+2*y=6}: solve(s1,{x, y}); //{y=2,x=2}

with(plots):implicitplot(s1, x=-10..10, y=-10..10);



2.2-rasm

Mavzu bo'yicha topshiqlar.

1.Berilgan CHATS Yakobi, Zeydel, relaksasiya iterasiya usullari bilan echilsin. Yechim Mathcad, Maple dasturlarida ichki funksiyalarda va algoritm tuzib olinsin. Natijalarning mosligiga yerishilsin.

2. Ixtiyoriy matrisali CHATS normal ko'rinishga keltirilib Zeydel iterasiya usuli bilan echilsin bu erda n-ni o'rniga ro'yxatdagi tartib raqam qo'yiladi.

$$A=\begin{bmatrix} n+3 & 1 & 1 & 1 \\ 1 & n+3 & 2 & 1 \\ 1 & 1 & n+3 & 3 \\ 1 & 1 & 4 & n+3 \end{bmatrix},\ n=1,2,3,...,\ b=\begin{bmatrix} n+6 \\ n+7 \\ n+8 \\ n+9 \end{bmatrix}.$$

Nazariy savollar va topshiriqlar

1.CHATS nima. Aniq yechim nima.Yechim qachon mavjud, mavjudmas va yagona.

2.CHATS qanday aniq usullar bilan echiladi va eng asosiy usul qaysi usul?

3.CHATS ni taqribiy yechish qanday g'oyaga asoslangan?

4. Iterator nima?

5. Iterasiyalarning yaqinlashish sharti nima?

6.CHATS uchun sodda iterasiya usuli. Iterasiyalarning yaqinlashishining yetarli sharti?

7.Zeydel, relaksasiya iterasiya usullari va iterasiyalarning yaqinlashishi.

8.Normal CHATS uchun iterasiya usuli, uning yaqinlashishi. CHATSni normallashtirish?

Xos sonlarni topish.

1.Matrisaning xos sonlari va vektorlari: $\lambda, x: Ax = \lambda x, x \neq 0$. Matrisaning asriy (xarakteristik) tenglamasi:

$$Ax = \lambda x, x \neq 0 \Rightarrow Ax - \lambda x = 0, x \neq 0 \Leftrightarrow D(\lambda) = |A - \lambda E| = (-1)^n(\lambda^n - p_1\lambda - .. - p_n) = 0.$$

Asriy tenglama ildizlari-bu xos sonlardir.

2. Simmetrik matrisa xos sonlari va vektorlari xossalari:

$$1)\lambda \in R,\ 2)Ax = \lambda x, Ay = \mu y, \lambda \neq \mu \rightarrow (x, y) = 0.$$

Xos sonlarni to'liq topish usullari

1) Ekstremal xos sonlar uchun iterasiya usuli:

$$x^{(k)}=A^k x^{(1)}, y^{(k)} = (A^{-1})^k y^{(1)}, k = 2,3,..., \lim_{k\to\infty} y_i^{(k)} / y_i^{(k-1)} = \lambda_{min}, \lim_{k\to\infty} x_i^{(k)} / x_i^{(k-1)} = \lambda_{max}, i = 1,...,n\ .$$

2) Xos sonlarni determinantni bevosita hisoblab topish usuli.

Bu ish 2 etapda olib boriladi:

1-etap. Asriy tenglama koeffisientlari topilib u quriladi:

$$D(\lambda) = |A - \lambda E| = (-1)^n(\lambda^n - p_1\lambda^{n-1} - .. - p_n) = 0$$

2-etap. Asriy tenglama echilib xos sonlar aniqlanadi:

$$D(\lambda_i) = |A - \lambda_i E| = 0, i = 1..m \leq n$$

3) Asriy tenglama qurishning Leverre usuli

1) matrisaning darajalari hisoblansin: $A^k, k = 1..n$;

2) ularning izlari hisoblansin: $A^k : s_k = s(A^k) = a_{11}^{(k)} + .. + a_{nn}^{(k)}$;

3) Nyuton formulalari asosida koeffisientlar hisoblansin:

$p_1 = s_1, p_k = (s_k - p_1 s_{k-1} - .. - p_{k-1}s_1)/k, k = 1..n$;

4) xos sonlar asriy tenglamadan topilsin: $D(\lambda)=(-1)^n(\lambda^n - p_1\lambda^{n-1} - ... - p_{n-1}\lambda - p_n) = 0$.

4) Asriy tenglama $D(\lambda) = 0$ qurishning interpolyasiya usuli.

1) sonlar olamiz $\lambda_i = i, i = 1..n$.

2) determinantlarni hisoblaymiz: $d_i = D(i)$, $i=1, ..., n$;

3) CHATS quramiz: $D(i) = |A - i * E| = (-1)^n * (i^n - \sum_{j=1}^{n} p_j i^{n-j}) = d_i, i = 1..n$:

$$\begin{bmatrix} p_1+...+p_n=1^n-(-1)^n d_1, \\ p_1 2^{n-1}+p_2 2^{n-2}+...+p_n=2^n-(-1)^n d_2, \\ .... \\ p_1 n^{n-1}+p_2 n^{n-2}...+p_n=n^n-(-1)^n d_n \end{bmatrix} \Leftrightarrow \begin{bmatrix} 1 & 1 & . & 1 \\ 2^{n-1} & 2^{n-2} & . & 1 \\ . & . & . & . \\ n^{n-1} & n^{n-2} & . & 1 \end{bmatrix} \begin{bmatrix} p_1 \\ p_2 \\ . \\ p_n \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} 1^n-(-1)^n d_1 \\ 2^n-(-1)^n d_2 \\ . \\ n^n-(-1)^n d_n \end{bmatrix}.$$

Belgilashlar kiritamiz va bu CHATSni quyidagicha yozib olamiz: $Mp=b$:

$$M=[m_{ij}]=[i^{n-j}],i,j=1,...,n,p=[p_1,p_2,...,p_n],b=[b_1,b_2,...,b_n],b_i=i^n-(-1)^n d_i$$

4) Bu sistemani yechib asriy tenglama koeffisientlarni topamiz: $p=M^{-1}b$.

5) Asriy tenglamani yechib xos sonlarni topamiz.

5) Asriy tenglama qurishning Krilov usuli.

Faraz qilaylik: $D(\lambda)=|A-\lambda E|=(-1)^n(p_1+p_2\lambda+...+p_{n-1}\lambda^{n-2}+p_n\lambda^{n-1}+\lambda^n)=0$.

Gamilton-Kelli teoremasiga asosan, matrisa o'z asriy tenglamasini qanoatlantiradi:

$$D(A)=0: D(A)=|A-AE|=|0|=0.$$

Shuning uchun egamiz:

$$D(A)=|A-AE|=(-1)^n(p_1+p_2A+...+p_{n-1}A^{n-1}+p_nA^n)=0 \Rightarrow (p_1+p_2A+...+p_{n-1}A^{n-2}+p_nA^{n-1}+A^n)=0$$

Bu yerdan $p_1E+p_2A+...+p_nA^{n-1}=-A^n$ deb olamiz. Bu tenglamani ixtiyoriy nolmas vektorga $x\in R^n$ ko'paytirib vektor tenglama hosil qilamiz:

$$p_1Ex+p_2Ax+...+p_nA^{n-1}x=-A^nx.$$

Vektorlar kiritib $M^{<k>}:=A^{k-1}*x, k=1..n, d=-A^nx$, asriy tenglama koeffisientlari uchun ushbu chiziqli tenglamalar sistemasini olamiz:

$$\begin{bmatrix} M_{11} & M_{12} & . & M_{1n} \\ M_{21} & M_{22} & . & M_{2n} \\ . & . & . & . \\ M_{n1} & M_{n2} & . & M_{nn} \end{bmatrix} * \begin{bmatrix} p_1 \\ p_2 \\ . \\ p_n \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} d_1 \\ d_2 \\ . \\ d_n \end{bmatrix}, M_{ij}=(A^{j-1}*x)_i, d=-A^nx=-\begin{bmatrix} (A^nx)_1 \\ . \\ (A^nx)_n \end{bmatrix}$$

Uni yechib asriy tenglama koeffisientlarini topamiz. Asriy tenglamani yechib xos sonlarni topamiz.

6) LU-algoritm (Rutisxauzer, 1958).

Bu eng ishonchli, lekin uncha turg'un bo'lmagan algoritm. Usulning algoritmining g'oyasi quyidagidan iborat: 1) A matrisa $A=A_1:=LU$ shaklga keltiriladi, L-quyi chap uchburchak, U- diogonali 1 ga teng o'ng uqori uchburchak matrisa; 2) A matrisaning xos sonlarini o'zgartirmaydigan o'xshash almashtirishlar bajariladi: $A_{m+1} := UL = UA_m U^{-1}, m = 1, 2, ... 3$. Bu ketma-ketlik limiti simmetrik matrisalar uchun bosh diogonalda A matrisaning xos sonlarini beradi. Ixtiyoriy matrisa uchun bu limit ikki o'lchovli blokli matrisaga intiladi. Bu bloklarning xos sonlari A matrisaning kompleks xos sonlariga yaqinlashadi.

7) QR-algoritm (Frensis, 1961).

Bu eng ishonchli, eng turg'un algoritm. Usul algoritmining g'oyasi quyidagidan iborat: 1) A matrisa $A = A_1 := QR$ shaklga keltiriladi, Q-ortogonal matrisa, R-o'ng uqori uchburchak matrisa; 2) A matrisaning xos sonlarini o'zgartirmaydigan o'xshash almashtirishlar bajariladi: $A_{m+1} := Q^{-1} A_m Q, m = 1,2,...3$) Bu ketma-ketlik limiti simmetrik matrisalar uchun bosh diogonalda A matrisaning xos sonlarini beradi. Ixtiyoriy matrisa uchun bu limit ikki o'lchovli blokli matrisaga intiladi. Bu bloklarning xos sonlari A matrisaning kompleks xos sonlariga yaqinlashadi.

MATHCADDA YIRIKLASHTIRILGAN ALGORITMLAR

1) Xos sonlarni *eigenvals(A)* **va xos vektorlarni** *eigenvecs(A)* **ichki funksiyalar bilan topish:**

$$A := \begin{bmatrix} 5 & 1 & 4 \\ 3 & 3 & 2 \\ 1 & 2 & 2 \end{bmatrix} \; r := eigenvals(A) \; s := eigenvecs(A) \; s = \begin{bmatrix} -0.326 & -0.702 & -0.557 \\ -0.548 & -0.094 & -0.371 \\ -0.77 & 0.603 & 0.743 \end{bmatrix}, r = \begin{bmatrix} 21.405125 \\ 13.594875 \\ 13 \end{bmatrix}$$

2) Xos sonlarni topishning determinantni bevosita hisoblash usuli.

Bu bizning asosiy usul:

$$ORIGIN := 1 \; A := \begin{bmatrix} 5 & 1 & 4 \\ 3 & 3 & 3 \\ 1 & 2 & 1 \end{bmatrix} \; E := identity(3) \; D(\lambda) := |E - \lambda * E| \; D(\lambda) \rightarrow -\lambda^3 + 9 * \lambda^2 - 12 * \lambda + 6$$

$$p := D(x) coeff, x \rightarrow \begin{bmatrix} 6 \\ -12 \\ 9 \\ -1 \end{bmatrix} \; s := polyroots(p) \; s = \begin{bmatrix} 0.746 + 0.493i \\ 0.746 - 0.493i \\ 0.7508 \end{bmatrix}$$

3) Leverre usulining algoritmi.

ORIGIN:=1 n:=3 A:= $\begin{bmatrix}5&1&4\\3&3&2\\1&2&1\end{bmatrix}$ k=1..n s_i:=tr(A^i) s=[9 57 423] p_1:=s_1 *//matrisa, izlar*

k:=2..n $p_k := \frac{1}{k}(s_k - \sum_{i=1}^{k-1} p_i s_{k-i})$ $p = \begin{bmatrix}9\\-12\\6\end{bmatrix}$ $q := -\begin{bmatrix}p_3\\p_2\\p_1\end{bmatrix}$ $q = \begin{bmatrix}-6\\12\\-9\end{bmatrix}$ *// $D(\lambda)$ koeffisientlari*

$P := stack(q,1)$ $P^T = [-6\ 12\ -9\ 1]$ *// $D(\lambda) = |A - \lambda E|$ ning barcha koeffisientlari*

r:=polyroots(P) $r = \begin{bmatrix}0.746+0.493i\\0.746-0.493i\\7.508\end{bmatrix}$ r1:=eigenvals(A) $r1 = \begin{bmatrix}0.746+0.493i\\0.746-0.493i\\7.508\end{bmatrix}$ //javob

4) Xos sonlar uchun interpolyasiya usuli. Usulning g'oyasi: $D(i) = |A - i*E| = (-1)^n*(i^n - \sum_{j=1}^{n} p_j i^{n-j}) = d_i, i = 1..n$. Bu bizga algoritm beradi:

ORIGIN:=1 n:=3 E:=identity(n) A:= $\begin{bmatrix}5&1&4\\3&3&2\\1&2&1\end{bmatrix}$ i:=1..n j:=1..n $D_i := |A - i*E|$ $d_i := (-1)^n * D_i$

$d = \begin{bmatrix}-2\\-10\\-24\end{bmatrix}$ $M_{i,j} := i^{n-j}$ $M = \begin{bmatrix}1&1&1\\4&2&1\\9&3&1\end{bmatrix}$ $b_i := i^n - d_i$ $b = \begin{bmatrix}3\\18\\51\end{bmatrix}$ *//CHATS:matrisa,o'ng tomon*

$p := M^{-1} * b$ $p^T = [9\ \ -12\ \ 6]$ $p1^T = -[p_3\ \ p_2\ \ p_1]$ *// $D(\lambda) = |A - \lambda E|$ koeffisientlari*

$q := stack(p1,1)$ $q^T = [-6\ 12\ -9\ 1]$ *// asriy tenglama $D(\lambda) = |A - \lambda E|$ koeffisientlari*

$r := polyroots(q)$ $r = \begin{bmatrix}0.746+0.493i\\0.746-0.493i\\7.508\end{bmatrix}$ $r1 := eigenvals(A)$ $r1 = \begin{bmatrix}7.508\\0.746+0.493i\\0.746-0.493i\end{bmatrix}$ // javoblar

5) Xos sonlari topishning Krilov usuli. Yiriklashtirilgan algoritm.

ORIGIN:=1 n:=3 $A := \begin{bmatrix}5&1&4\\3&3&2\\1&2&1\end{bmatrix}$ $x := \begin{bmatrix}1\\0\\0\end{bmatrix}$ $E := identity(n)$ k:=1..n

$M^{\langle k\rangle} := A^{\langle k-1\rangle} * x$ $M = \begin{bmatrix}1&5&32\\0&3&26\\0&1&12\end{bmatrix}$ $d := (-1)*A^n*x$ $p := M^{-1}*d$ $d^T = -[234\ \ 198\ \ 96]$

$p^T = [-6\ \ 12\ \ -9]$ $P := stack(p,1)$ $P^T = [-6\ 12\ 9\ 1]$

r:=polyroots(P) s:=eigenvals(A) $r=\begin{bmatrix}0.746+0.493i\\0.746+0.493i\\7.508\end{bmatrix}$ $s=\begin{bmatrix}7.508\\0.746+0.493i\\0.746-0.493i\end{bmatrix}$

6) QR-algoritmning yiriklashtirgan ko'rinishi (Mathcad uni bajaradi).

ORIGIN:=1 *//QR-algoritm*

$A:=\begin{bmatrix}1&2&3\\4&5&6\\7&8&9\end{bmatrix}$ $p:=eigenvals(A)$ $p=\begin{bmatrix}16.117 & -1.117 & 0\end{bmatrix}^T$ $Q:=identity(3)$ $R:=identity(3)$

$M:=qr(A)$ $r:=rows(M)$ $s:=cols(M)$ $r=3$ $s=6$ $n:=10$ *// qr – алмаштириш*

```
QR(A,n,Q,R,M) := | for k ∈ 1..n
                 |   | M ← qr(A)
                 |   | Q ← submatrix(M,1,r,1,r)
                 |   | R ← submatrix(M,1,r,r+1,2·r)
                 |   | A ← Q^-1·A·Q
                 | Q
                 | R
                 | M
```

(4)

$Q=\begin{pmatrix}1&0&0\\0&1&0\\0&0&1\end{pmatrix}$ $R=\begin{pmatrix}1&0&0\\0&1&0\\0&0&1\end{pmatrix}$ $z:=QR(A,n,Q,R,M)$ $z=\begin{pmatrix}1&0&0&16.11684&-4.89898&0\\-0&1&0&0&-1.11684&0\\0&0&1&0&0&0\end{pmatrix}$

Bu yerda xos sonlar o'ng tomondagi R matrisaning diogonalida joylashgan.

7) Ekstremal xos sonlar uchun iterasiya usuli. Xos sonlarning qismiy problemasi. Mathcadda ichki funksiyalar va algoritm asosida xos sonlarni topish:

ORIGIN:=1 $A:=\begin{bmatrix}34&1&2\\1&35&2\\1&3&36\end{bmatrix}$ $C:=A^{-1}$ $x^{\langle 1\rangle}:=\begin{bmatrix}1\\0\\1\end{bmatrix}$ $y^{\langle 1\rangle}:=\begin{bmatrix}1\\0\\1\end{bmatrix}$ i:=1..3 k=1..30

$s:=eigenvals(A)$ $r:=eigenvals(C)$ $s=\begin{bmatrix}38.44949\\33.55051\\33\end{bmatrix}$ $r=\begin{bmatrix}0.026008\\0.029806\\0.030303\end{bmatrix}$

$x^{\langle k\rangle}:=A^k*x^{\langle 1\rangle}$ $y^{\langle k\rangle}=C*x^{\langle 1\rangle}$ $\lambda_i:=\frac{x_{i,30}}{x_{i,29}}$ $\mu_i:=\frac{y_{i,30}}{y_{i,29}}$ $\lambda=\begin{bmatrix}38.261594\\38.499143\\38.448885\end{bmatrix}$ $\mu=\begin{bmatrix}0.029779\\0.030411\\0.030553\end{bmatrix}$ $\lambda_{max}=38.449$ $\lambda_{min}=33$

Mavzu bo'yicha topshiriqlar

Berilgan matrisa (belgilash Mapleniki) $A = matrix([n+3,1,1;1,n+4,2;1,1,n+5]), n = 1,2,...$ Matrisaning xos sonlarini bevosita tarif bo'yicha, Mathcad komandalari asosida, Leverre, interpolyasiya, Krilov, LU, QR usullar yordamida toping. Natijalarning adekvatligiga yerishilsin. Bu yerda n-ning o'rniga talabaning ro'yxatdagi tartib raqamini n-ning o'rniga qo'yib ishlanadi.

Nazariy savollar va topshiriqlar

1.Matrisaning xos soni nima?

2.Simmetrik matrisaning xos sonlarining xossalari nima?

3.Xarakteristik tenglama nima?

4.Xos vektor nima?

5.Xos sonlar bevosita tarif asosida qanday ketma-ketlikda topiladi?

6.Leverre usuli nima?

7.Krilov usuli nima?

8. Interpolyasiya usuli nima?

9.LU-algoritm nima?

10.QR-algoritm nima?

Amaliy mashg'ulot №3

Mavzu: Bir nomalumli algebraik tenglamalarni taqribiy yechish

Mashg'ulotning maqsadi: Talabalarda bir nomalumli algebraik tenglamalarni taqribiy yechish ko'nikmasini shakllantirish

Mashg'ulotning jihozi:

a) Ko'rgazmali material

b) Kompyuterning dasturiy ta'minoti

c) Matematik tizimlar

Mashg'ulot texnik vositalari: Pentium IV kompyuterlari (qo'shimcha qurilmalari) bilan jihozlangan kompyuter sinfi

Mashg'ulotning borishi:

a) Auditoriya va talabalarni darsga tayyorligini aniqlash

b) Yo'qlama qilish.

c) Talabalardan o'tilgan mavzularni takrorlash

d) Yangi mavzuning bayoni: kompyuter va ko'rgazmali qurollar yordamida bayon etiladi (Keys stadi metodi)

e) Dars yakuni: Amaliy mashg'ulot bo'yicha har bir talabaga individual topshiriqlar beriladi.

Mavzuni qisqacha bayoni

1.Nochiziq tenglama to'g'risida umumiy tushunchalar: f(x)=0, $f(\xi)=0$.

Tenglamani f(x)=b, $f(\xi)=b$ ko'rinishlarda ham yozish mumkin.

2.Ildizlarni ajratish masalasi $f(a)f(b)<0 \triangleright \exists c: f(c)=0$.

Kesmani 2 ga bo'lish usuli: $x^{(k)}=x^{(k-1)}+sign(f(a)f(x^{(k-1)}))(b-a)/2^k$, $k=1,2,...,x^{(0)}=a$.

$$|\xi-x^{(k)}|\le(b-a)/2^k.$$

3.Taqribiy yechimlar $x^{(k)}$ iterasiya usuli bilan topiladi: $x^k=g(x^{k-1})\approx\xi, \xi=\lim\limits_{k\to\infty}x^k, f(\xi)=0$. Bunda $\varepsilon_k=|\xi-x^{(k)}|$–taqribiy yechim xatoligi deyiladi. $r_k=f(x^{(k)})$-miqdor esa taqribiy yechimning tenglamani qanoatlantirganlik darajasini ko'rsatib, chetlanish deyiladi.

4. Iterasiya usuli bilan f(x)=0 tenglamani taqribiy yechish:

$$f(x)=0 \Leftrightarrow x=g(x),\ g(x)=x-\lambda f(x),\ q=\max_{x\in[a,b]}|g'(x)|<1,\ sign(\lambda f'(x))>0,$$

$$\lambda=\pm 2/(m+M),\ M=\max_{x\in[a,b]}f'(x),\ m=\min_{x\in[a,b]}f'(x),$$

$$x^k=g(x^{k-1})\approx\xi, \xi=\lim_{k\to\infty}x^k, f(\xi)=0. |\xi-x^{(k)}|\le q^k|\xi-x^{(0)}|, |\xi-x^{(k)}|\le\frac{q}{1-q}|x^{(k)}-x^{(k-1)}|.$$

$f(x)=0 \Leftrightarrow x=g(x),\ g(x)=x-\lambda f(x),\ q=\max\limits_{x\in[a,b]}|g'(x)|<1$ almashtirishda tenglamaninig x=g(x) ko'rinishi uni iterasiya usulini qo'llash uchun qulay ko'rinish deyiladi.

Demak, iterasiyalar taqribiy yechim ekan: $\xi=\lim\limits_{k\to\infty}x^k, f(\xi)=0$. Funksiya $g(x)=x-\lambda f(x)$ iterasiyalovchi funksiya-iterator deyiladi.

5. Nyuton iterasiya usuli. Soddalashgan Nyuton usuli.

$x_{k+1}=g(x_k)=x_k-f(x_k)/f'(x_k)$,- Nyuton iterasiya usuli,

$y_{k+1} = g(y_k) = y_k - f(y_k)/f'(y_0), x_k \approx \xi, y_k \approx \xi, k = 0,1,...$ -soddalashgan Nyuton usuli,

$$\left|\xi - x^{(k)}\right| \le (p\left|\xi - x^{(0)}\right|)^{2^k} / p, p = 2M_2 / m_1, m_1 = \min\left|f'(x)\right|, M_2 = \max\left|f''(x)\right|.$$

6. Mathcad ning ichki funksiyalari: bir nomalumli nochiziq tenglamalarni yechish uchun standart ichki funksiyalar polyroots(v) (ko'phadli tenglama $f(x)=a_0+a_1x+...+a_nx^n$, $v=[a_0,a_1,...,a_n]^T$ uchun), root(f(x),x)) (ixtiyoriy tenglama uchun). Yana oddiy iterasiya va Nyuton iterasiya usullarini tashkil etish mumkin.

Topshiriqlarni Mathcadda bajarish.

Misol 1. root(f(x),x)) ichki funksiyasi. f(x)=x-cos(x)=0 tenglamani yechish quyidagicha amalga oshiriladi:

x:=0 f(x):=x-cos(x) *// Boshlang'ich iterasiya va tenglama*

$r:=root(f(x),x)^T$ r=0.7398 *// Ichki funksiyaga murojaat va ildizni chiqarish*

Grafikni keltiramiz (f(x)=x-cos(x), $-10 \le x \le 10$).Tenglama yagona yechimga ega:



3.1-rasm

Misol 2. Ko'phadli tenglama uchun poliroots(v) ichki funksiyasi.

$f(x) := a(x-k)^3 + b(x-k)^2 + c(x-k) = 0, a,b,c \in R, k = n \in N$ tenglamaning barcha ildizlarini topilsin.Tenglamani 3 ta haqiqiy yechimlari bor:

$a := 1\ b := 3\ c := 1\ n := 4\ k := n\ \ f(x) := a(x-k)^3 + b(x-k)^2 + c(x-k)$

$p(x) := f(x)\text{exp}and \to x^3 - 9x^2 + 25x - 20\ \ v := p(x)coeffs \to [-20\ 25\ -9\ 1]^T$

$r := polyroots(v)\ r = [1.382\ 3.618\ 4]^T$

$p(x) := x^3 - 9x^2 + 25x - 20\ \ s := root(p(x), x) \to [4\ 1.3819\ 3.6150]$

Misol 3. Iterasiya usulini qurish. $f(x)=x-\cos(x)=0$ tenglamani qaraymiz va iterasiya usuli uchun yiriklashgan algoritm tuzamiz:

$x_0:=0 \quad k:=0..10$ *// Boshlang'ich iterasiya va iterasiyalar sonini berish*

$x_{k+1}:=\cos(x_k)$ *// f(x)=0 ni x=g(x) ko'rinishga keltirib iterasiyalar qurish*

x^T=(1, 0.5403, 0.8576,..., 0.7314) *// Natijani chiqarish*



3.2-rasm

Misol 4. Yana o'sha tenglamani qaraymiz. Faqat, p.3 dagi iteratorni olamiz.

$M:=2\ m:=1\ l:=2/(M+m)\ l=2/3\ f(x):=x-\cos(x)\ g(x):=x-l*f(x)\ x_0:=0\ k:=0..10\ x_{k+1}:=g(x_k)$

3.1-jadval

$x^T=$

	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
0	0	0.667	0.746	0.738	0.739	0.739	0.739	0.739	0.739	0.739	0.739

iterasiyalar oldingi variantga nisbatan tezroq yaqinlashyapti.

Misol 5. Iterasiya usuli. $f(x)=x^3-5x+1=0$ tenglamani qaraymiz. Avvalo, tenglama 3 ta yechimga ega: $r:=polyroots(1\ -5\ 0\ 1)\ r=[-2.330059, 0.20164, 2.128419]^T$.

1) $\xi_1=-2.330059$ yechim uchun iterasiyalar quramiz:

$x=g_1(x)=\sqrt[3]{5x-1})/5, q_1=\max|g_1'(x)|=\max\left|(5/3)\sqrt[3]{(5x-1)^2}\right|<(5/3\sqrt[3]{81})<1, x\in[-2,-3]$

$x_0:=0\ \ k:=0..4$ *// Boshlang'ich iterasiya va iterasiyalar soni*

$x_{k+1}:=\sqrt[3]{5x_k-1}$ *// f(x)=0 ni x=g(x) ko'rinishga keltirish va iterasiyalar qurish*

Natijalarni 3.2-jadvalda ko'rish mumkin.

3.2-jadval

$x^T=$

	0	1	2	3	4	5
0	-2.5	-2.3811	-2.34562	-2.33483	-2.33152	...

2) $\xi_2 = 0.20164$ yechim uchun iterasiyalar quramiz:

$x = g_2(x) = (1+x^3)/5, q_2 = \max|g_2'(x)| = \max|3x^2/5| < 0.6, x \in [0,1]$

$x_0 := 0 \;\; k := 0..10$ *// Boshlang'ich iterasiya va iterasiyalar sonini berish*

$x_{k+1} := (1+x_k^3)/5$ // f(x)=0 *ni* x=g(x) *ko'rinishga keltirib iterasiyalar qurish*

$x^T = [0\ 0.2\ 0{,}2016\ 0.201639\ 0{,}20164]$. // *iterasiyalar*

3) $\xi_3 = 2.128419$ yechim uchun iterasiyalar quramiz

$x = g_3(x) = \sqrt[3]{5x-1})/5, q_3 = \max|g_3'(x)| = \max\left|(5/3)\sqrt[3]{(5x-1)^2}\right| < (5/3\sqrt[3]{81}) < 1, x \in [2,3]$

$x_0 := 0 \;\; k := 0..4$ *// Boshlang'ich iterasiya va iterasiyalar soni*

$x_{k+1} := \sqrt[3]{5x_k - 1}$ // f(x)=0 *ni* x=g(x) *ko'rinishga keltirib iterasiyalar qurish*

3.3-jadval

$x^T =$

	0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
0	2.5	2.2572	2.1748	2.1453	2.1346	2.1307	2.1293	2.1287	2.1285	2.1285	...

Misol 6. Nyuton usuli. $f(x) = x - \cos(x) = 0$ tenglamani qaraymiz.

$x_0 := 0 \;\; k := 0..10$ *// Boshlang'ich iterasiya va iterasiyalar sonini berish*

$x_{k+1} := x_k - (x_k - \cos(x_k))/(1+\sin(x_k))$ *// Nyuton usuli* $x^{(k+1)} = x^{(k)} - f(x^{(k)})/f'(x^{(k)})$

$x^T = (1, 0.75036, 0.73911, ..., 0.73909)$ $\xi \approx 0.73909$ *// Natijani chiqarish*

3. Topshiriqlarni Maple matematik tizimida bajarish.

Misol 1.

p:=2*x^3+11*x^2+12*x-9:roots(p); *//[[0.5],[-3,2]](-3 2 karrali ildiz)*

solve(p(x),x);*//{x=1/2},{x=-3},{ x=-3} (-3 2 karrali ildiz)*

r:=solve(p(x),x); *// r:= {x=1/2},{x=-3},{ x=-3}*

plot(p,x=-4..4,labels=[x,y],labelfont=[TIMES,ITALIC,12]);



3.3-rasm

Misol 2. Ko'phadli tenglamani yechish. $f(x)=x^5-7x^3+4x^2-5=0$.

Tenglamalarni taqribiy yechish uchun universal solve(eq,x):komandaga o'xshash fsolve(eq,x) komanda ishlatiladi:

eq(x) := x^5-7*x^3+4*x^2-5; $//x^5-7x^3+4x^2-5=0$

fsolve(eq(x),{x}); //{x=-2.8608..},{x=-0.7521..},{x=2.3857..}

plot(eq(x),x=-4..4,y=-50..50,colour=[green,red]);



3.4-rasm

Misol 3. Bir necha misollarni ko'ramiz:

x:=fsolve(cos(x)=x,x); //x:=0.7390851332 (10-ta raqam bilan).

r:=solve(4*x+0.8*exp(x)-7.4561=0,x); // x:=1.200000971

x:=fsolve(4*x+0.8*exp(x)-7.4561=0,x); // x:=1.200000971

y:=fsolve(y^3-2.8*exp(y)+2.5713=0,y); // y:=-0.08545049502

q:=solve(y^3-2.8*exp(y)+2.5713=0,{y}): // q:=-0.08545049502

Misol 4. Mapleda tenglamalarni yechish uchun Nyutonning interaktiv usuli.

a) Ushbu komandani beramiz :Tools▶ Calculus▶ Single Variables ▶Newton's Methods... Interaktiv oyna paydo bo'ladi:

Bu yerda tenglama $f(x)=0$, parametr x_0, iterasiyalar soni $k:=1..n$ beriladi.



3.5-rasm

Misol 4. Tenglamalarni iterasiya va Nyuton usuli bilan yechish.

with(Student[NumericalAnalysis]);

f := x-cos(x);Newton(f, x = 1.0, tol yerance = 10^(-8)); *// 0.7390851332*

Newton(f, x = 1.0, tolerance = 10^(-8), output = sequence);

1.0, 0.7503638679, 0.7391128909, 0.7390851334, 0.7390851332 *// Nyuton usuli*

FixedPointlt yeration(f, x = 1.0, tolerance = 10^(-8), output = sequence);

1.0, 0.5403023059, 0.8575532158, 0.6542897905, 0.7934803587, 0.7013687737, 0.7639596829, 0.7221024250, 0.7504177618, 0.7314040424, 0.7442373549 *// qo'zg'almas nuqta uchun iterasiya usuli*

4. Individual topshiriqlar. Tenglamalar avvalo Mathcad va Maple dasturilarida ichki funksiyalar yordamida yechimlari topilsin, so'ng yechim algoritm tuzib iterasiya, Nyuton usullari bilan hisoblansin. Natijalarning yaqinligiga yerishilsin. Grafiklar chizilsin.

3.4-jadval

№	Tenglama	yechimlar
1	$f(x)=\sqrt{x}-x^{-1}\ln(x)+4x-1.5=0$	
2	$f(x)=\cos(x)-\exp(-x)+0.5=0$	

3	$f(x)=1.5-0.4\sqrt{x^3}-0.5\ln(x)=0$	
4	$f(x)=2-\sqrt{x^3}-2\ln(x)=0$	
5	$f(x)=1-0.5x^2\ln(x)+0.3\sqrt{x}=0$	
6	$f(x)=1-x\ln(x)+0.3\sqrt{x}=0$	
7	$f(x)=3-0.5\sqrt{x}-\exp(-0.5x^2)=0$	
8	$f(x)=3-\sqrt{x^3}+0.5\ln(x)=0$	
9	$f(x)=0.3\exp(-0.7\sqrt{x})-2x^2+4=0$	
10	$f(x)=0.5\exp(-\sqrt{x})-0.2\sqrt{x^3}+2=0$	
11	$f(x)=\exp(-0.7x)-0.3\sqrt{x}+1=0$	
12	$f(x)=3-\sqrt{x}-0.5\ln(x)=0$	
13	$f(x)=0.2\exp(-x^2)-\sqrt{x}+3=0$	
14	$f(x)=0.3\cos^2(x)-\ln(x)+2=0$	
15	$f(x)=\exp(-0,5x^2)-x^3+0.2=0$	
16	$f(x)=\exp(-0.5x)-0.2x^2+1=0$	
17	$f(x)=\exp(-0.4x^2)-0.5x^2+1=0$	
18	$f(x)=1.5-0.4\sqrt{x^3}-\exp(-x^2)\sin(x)=0$	
19	$f(x)=2-0.5x^2-0.5x^{-1}\sin(x)-x=0$	
20	$f(x)=0.3\exp(x)-\cos^2(x)+2=0$	
21	$f(x)=0.5\exp(-x^2)-x\cos(x)=0$	
22	$f(x)=\cos^2(x)-0.8x^2=0$	
23	$f(x)=1+\exp(-\sqrt{x})-\ln(x)=0$	
24	$f(x)=x\ln(x)-\exp(-0.5x^2)=0$	
25	$f(x)=\sin(0.5x)+1-x^2=0$	
26	$f(x)=\cos(0.5x)-0.4\ln(x)=0$	
27	$f(x)=\exp(-0.3x^2)-\sqrt{x}+1=0$	

28	$f(x)=\cos^2(x)-0.1\exp(x)=0$	
29	$f(x)=x^2-\exp(-x^2)=0$	
30	$f(x)=x-\sin(x)-0.25=0$	

Nazariy savollar va topshiriqlar.

1. Taqribiy yechishning g'oyasi nimadan iborat?
2. Ildizlarni ajratish nima degani va ildizlar necha xil usulda ajratiladi?
3. Ildizlarni geometrik usulda ajratish qanday g'oyaga asoslangan?
4. Iterasiya usuli nima?
5. Iterasiya usulining yaqinlashish sharti nima?
6. Tenglamani iterasiya usulini qo'llash uchun qulay ko'rinishga keltirish deganda nimani tushunasiz.

8. Nyutonning iterasiya usuli, sodda Nyuton iterasiya usuli nima.

Amaliy mashg'ulot №4

Mavzu: Chiziqsiz tenglamalar sistemasini yechish uchun oddiy iterasiya usuli

Mashg'ulotning maqsadi: Talabalarda chiziqsiz tenglamalar sistemasini yechish uchun oddiy iterasiya usuli bilan yechish ko'nikmasini shakllantirish

Mashg'ulotning jihozi:

a) Ko'rgazmali material

b) Kompyuterning dasturiy ta'minoti

c) Matematik tizimlar

Mashg'ulot texnik vositalari: Pentium IV kompyuterlari (qo'shimcha qurilmalari) bilan jihozlangan kompyuter sinfi

Mashg'ulotning borishi:

a) Auditoriya va talabalarni darsga tayyorligini aniqlash

b) Yo'qlama qilish.

c) Talabalardan o'tilgan mavzularni takrorlash

d) Yangi mavzuning bayoni: kompyuter va ko'rgazmali qurollar yordamida bayon etiladi (Aqliy hujum metodi)

e) Dars yakuni: Amaliy mashg'ulot bo'yicha har bir talabaga individual topshiriqlar beriladi.

Mavzuni qisqacha bayoni

$$f(x)=\begin{cases} f_1(x_1,...,x_n) \\ ... \\ f_n(x_1,...,x_n) \end{cases}=\begin{cases} 0 \\ . \\ 0 \end{cases}=0, x=\begin{bmatrix} x_1 \\ . \\ x_n \end{bmatrix}$$

1.Iterasiya usuli. $f(x)=0 \Leftrightarrow x=g(x), g(x)=x-Lf(x), \det(L)\neq 0, f:R^n\to R^n$ va iterasiya usuli ($g(x)=x-Lf(x)$- iterasiyalovchi funksiya, iterator) quyidagicha quriladi:

$$x^k=g(x^{k-1})\approx\xi, k=1,..., \lim_{k\to\infty}x^k=\xi, x, \xi\in R^n, \|g(x)-g(y)\|\leq q\|x-y\|, 0<q<1.$$

Bu yerda $q=\max_{x\in D}\|g'(x)\|=\max_{x\in D}\|\partial g_i(x)/\partial x_j\|$.

Iterasiyalar iterasiya usulining yaqinlashih sarti $q<1$ bajarilsagina yaqinlashadi.

2.* Qoldiq xad uchun baholar*:

$\|\xi-x^{(k)}\|\leq q^k\|\xi-x^{(0)}\|, \|\xi-x^{(k)}\|\leq q\|x^{(k)}-x^{(k-1)}\|/(1-q)=q^k\|x^{(1)}-x^{(0)}\|/(1-q)$

Mathcad dasturida chiziqsiz tenglamalar sistemasini taqribiy yechish uchun standart ichki funksiyalar mavjud, ular given ..find bloki, minimize (f(x),x), mineer(x,y) ichki funksiyasi. Undan tashqari ularni oddiy iterasiya va Nyuton iterasiya usullari yordamida ham taqribiy yechish mumkin.

Maple dasturida chiziqsiz tenglamalar sistemasini yechish uchun universal solve, fsolve, minimize ichki funksiyalari mavjud. Oddiy iterasiya va Nyuton usulini tashkil etish imkoniyati ham mavjud.

Topshiriqni Mathcadda bajarish.

Asosiy fikrlarni ushbu tenglamalar sistemasi orqali ochib beramiz:

1) $f_1(x_1,x_2)=x_1^2+x_2^2=1$, $f_2(x_1,x_2)=x_1^2-x_2=0$ (aylana va parabola, 2 ta yechim)

2) $f_1(x_1,x_2):=x_1^2-10x_1+x_2^2+8, f_2(x_1,x_2):=x_1x_2^2+x_1-10x_2+8.$

1) given ..find bloki yordamida NTS ni yechish.

x:=1 y:=0 // boshlang'ich iterasiya (x:=-1 y:=0)

Given $x^2+y^2=1$ $x^2-y=0$ *// tenglamalarni berish, barobar yo'g'on*

$r:=Find(x,y)$ *// ildizni o'zgaruvchiga berish*

$r^T=[0.7861 \quad 0.6181]$ *// ildizni chiqarish,* ($r^T=[-0.7861 \quad 0.6181]$)

iterasiya usulini tashkil etuvchi jarayonlar tuzamiz.

2) iterasiya usuli yordamida NTS ni yechish.

$x_1+0.5\cos x_2=1, \sin(x_1+1)-x_2=1.2$ sistemani qaraymiz.

ORIGIN:=1 $g(x):=[1-0.5*\cos(x_2) \quad \sin(x_1+1)-1.2]^T$ *// iterasiyalovchi funksiya*

$x^{<1>}:=[0.4 \quad 0.5]^T$ *// boshlang'ich iterasiya* $x^{<1>}:=[-0.6 \quad -0.1]^T$

$k:=1..5$ $x^{<k+1>}:=g(x^{<k>})$ *// iterasiyalarni hisoblash*

$$x=\begin{bmatrix}0.4 & 0.562 & 0.515 & 0.510 & 0.511 & 0.511\\ 0.5 & -0.215 & -0.20 & -0.202 & -0.219 & -0.219\end{bmatrix} // x=\begin{bmatrix}-0.6 & 0.502 & 0.655 & 0.510 & 0.510 & 0.510\\ -0.1 & -0.811 & -0.202 & -0.203 & -0.202 & -0.202\end{bmatrix}$$

3) Minimizasiya usuli bilan NTSni taqribiy yechish.

$f(x):=(x_1^2+x_2^2-1)^2+(x_2-x_1^2)^2\to\min$ masalani qaraymiz. Ravshanki, Minimize f(x)=0, yani f(x)=0. Shuning uchun, topamiz:

$x_1:=-1$ $x_2:=0$ *// boshlang'ich qiymat* ($x_1:=1$ $x_2:=0$)

$f(x):=[x_1^2+x_2^2-1]^2+[x_1^2-x_2]^2$ *// maqsad funksiya*

$s:=Minimize(f,x_1,x_2)$ $s^T=(-0.786\ 0.618)$ *// natijalar* $r^T=(0.787\ 0.618)$

4) Mineer ichki funksiyasi yordamida NTS ni taqribiy yechish.

$x_1:=-1$ $x_2:=0$ ($x_1:=1$ $x_2:=0$) *// Boshlang'ich qiymat*

Given $x_1^2+x_2^2-1=0, x_1^2-x_2=0$ *// Blok boshi*

$s:=Minerr(x_1,x_2)$ *// Ichki funksiyaga murojaat*

$r^T=(0.787\ 0.618)$ ($s^T=(-0.786\ 0.618)$) *// Natijalar*

Topshiriqlarni Maple dasturida bajarish.

1) NTS ni ichki funksiya bilan yechish

$f1(x1,x2):=x1^2-10x1+x2^2+8; f2(x1,x2):=x1x2^2+x1-10x2+8;$
$fsolve(\{f1,f2\},\{x1,x2\}); //\{x1=1.000000000, x2=1.000000000\}$

2)NTS ni iterasiya usuli bilan taqribiy yechish.

$f1(x1,x2):=x1^2-10x1+x2^2+8; f2(x1,x2):=x1x2^2+x1-10x2+8;$
$g1:=x1=(x1^2+x2^2+8)/10; g2:=x2=(x1x2^2+x1+8)/10;$
$fsolve(\{g1,g2\},\{x1,x2\}); //\{x1=1.000000000, x2=1.000000000\}$

3) Eng kichik kvadratlar usuli bilan taqribiy yechish

$with(Optimization): Minimize((x1^2-10x1+x2^2+8)\char`^2+(x1x2^2+x1-10x2+8)\char`^2);$
//8.33122e-19,[x=0.999986,y=0.999946].

Ko'rinib turibdiki, uch xil usul deyarli bir xil natija beryapti.

Individual topshiriqlar.

NTSning yechimi avvalo Mathcad va Maple dasturilarida ichki funksiyalar yordamida topilsin, so'ng yechim algoritm tuzib iterasiya usuli bilan hisoblansin. Natijalarning yaqinligiga yerishilsin. Grafiklar chizilsin.

4.1-tablisa

№	Tenglamalar sistemasi	Yechim
1	$\sin(x+1)-y=1.2, 2x+\cos y=2$	
2	$\sin x+2y=2, \cos(y-1)+x=0.7$	
3	$tg(xy+0.4)=x^2, 0.6x^2+2y^2=1$	
4	$\cos x+y=1.5, 2x-\sin(y-0.5)=1$	
5	$\{\sin(x+0,5)-y=1,2x-\sin(y-0,5)=1$	
6	$\cos(x+0.5)+y=0.8; \sin y-2x=1.6$	
7	$\{\cos(y-0.5)+x=0.8; \sin x+2y=1.6;$	
8	$2x-\cos(y+1)=0; y+\sin x=-0,4$	
9	$\cos(y+0,5)-x=2; \sin x-2y=1$	
10	$\sin(x+1)-y=1,2x+\cos y=2$	
11	$\sin(x+1)-y=1; 2x+\cos y=2$	
12	$\cos(x-1)+y=0,8; x-\cos y=2$	
13	$\sin x+2y=1,6; \cos(y-1)+x=1$	
14	$cox+y=1,2; 2x-\sin(y-0,5)=2$	
15	$\sin(x+y)=1,2x-0,2; x^2+y^2=1$	
16	$\cos(x-1)+y=0.5, x-\cos y=3$	

17	$\cos x + y = 1.5, 2x - \sin(y - 0,5) = 1$	
18	$\sin(x + y) - 1,6x = 0, x^2 + y^2 = 1$	
19	$\sin(x + y) - 1,2x = 0.2, x^2 + y^2 = 1$	
20	$tg(xy + 0.3) = x^2, 0.9x^2 + 2y^2 = 1$	
21	$\{\sin(x + y) - 1,3x = 0, x^2 + y^2 = 1$	
22	$tg(xy + 0,1) = x^2; 0,5x^2 + 2y^2 = 1$	
23	$\sin(x + y) = 1,1x - 0,1; x^2 + y^2 = 1$	
24	$tg(x - y) - xy = 0; x^2 + 2y^2 = 1$	
25	$\sin(x - y) - xy = -1, x^2 - y^2 = 0.75$	
26	$tg(xy + 0,2) = x^2; x^2 + 2y^2 = 1;$	
27	$\sin(x + y) - 1,5x = 0; x^2 + y^2 = 1$	
28	$\{tgxy = x^2, 0,5x^2 + 2y^2 = 1$	
29	$\sin(x + y) = 1,2x - 0,2; x^2 + y^2 = 1$	
30	$\sin(x + y) = 1,2x - 0,2; x^2 + y^2 = 1$	

Nazariy saollar va topshiriqlar.

1.Chiziqsiz tenglamalar sistemasining aniq va taqribiy yechimi nima?

2.Chiziqsiz tenglamalar sistemasi nima uchun taqribiy yechiladi?

3.Iterasiya usuli nima?

4.Chiziqsiz tenglamalar sistemasi iterasiya usulini qo'llash uchun qulay ko'rinishga keltirish deganda nimani tushunasiz?

5. Chiziqsiz tenglamalar sistemasi iterasiya usuli bilan yechganda taqribiy yechim xatoligi nima?

Amaliy mashg'ulot №5

Mavzu: Chiziqsiz tenglamalar sistemasini yechish uchun Nyuton iterasiya usuli

Mashg'ulotning maqsadi: Talabalarda chiziqsiz tenglamalar sistemasini yechish uchun Nyuton iterasiya usuli bilan yechish ko'nikmasini shakllantirish

Mashg'ulotning jihozi:

a) Ko'rgazmali material

b) Kompyuterning dasturiy ta'minoti

c) Matematik tizimlar

Mashg'ulot texnik vositalari: Pentium IV kompyuterlari (qo'shimcha qurilmalari) bilan jihozlangan kompyuter sinfi

Mashg'ulotning borishi:

a) Auditoriya va talabalarni darsga tayyorligini aniqlash

b) Yo'qlama qilish.

c) Talabalardan o'tilgan mavzularni takrorlash

d) Yangi mavzuning bayoni: kompyuter va ko'rgazmali qurollar yordamida bayon etiladi (Aqliy hujum metodi)

e) Dars yakuni: Amaliy mashg'ulot bo'yicha har bir talabaga individual topshiriqlar beriladi.

Mavzuni qisqacha bayoni

$$f(x)=\begin{cases} f_1(x_1,\dots,x_n) \\ \dots \\ f_n(x_1,\dots,x_n)\end{cases}=\begin{cases}0 \\ . \\ 0\end{cases}=0,\ x=\begin{bmatrix}x_1 \\ . \\ x_n\end{bmatrix},\ f'(x)=\begin{bmatrix} f_{1x_1}(x) & . & f_{1x_n}(x) \\ . & . & . \\ f_{nx_1}(x) & . & f_{nx_n}(x)\end{bmatrix}.$$

1. Nyuton iterasiya usullari. Bu yerda $J(x)=f'(x)=\left[\partial f_i(x)/\partial x_j\right]$-Yakobi matrisasi va Nyutonning asosiy va soddalashgan usullari quyidagicha quriladi:

$$x^{(k+1)}=g(x^{(k)})=x^{(k)}-[f'(x^{(k)})]^{(-1)}f(x^{(k)}),k=0,1,..\text{-asosiy usul,}$$

$$y^{<k+1>}:=g(y^{<k>})=y^{<k>}-(f'(y^{<0>}))^{-1}f(y^{<k>}),k=0,1,...\text{-soddalashgan usul.}$$

Usulning qoldig'i $|\xi\text{-}x^{(k)}|\le p(|\xi\text{-}x^{(k-1)}|)^2,|\xi\text{-}x^{(k)}|\le(p|\xi\text{-}x^{(0)}|)^{2^k}/p,p=M_2/(2m_1)$.

iterasiya usuli bilan aloqasi: $x^k=g(x^{k-1}),g(x)=x-[f'(x)]^{-1}f(x)$.

Mathcad dasturida chiziqsiz tenglamalar sistemasini taqribiy yechish uchun standart ichki funksiyalar mavjud, ular given ..find bloki, minimize (f(x),x), mineer(x,y) ichki funksiyasi. Undan tashqari ularni oddiy iterasiya va Nyuton iterasiya usullari yordamida ham taqribiy yechish mumkin.

Maple dasturida chiziqsiz tenglamalar sistemasini yechish uchun universal solve, fsolve, minimize ichki funksiyalari mavjud. Nyuton iterasiya usulini tashkil etish imkoniyatlari ham mavjud.

Topshiriqlarni Mathcadda bajarish.

Asosiy fikrlarni ushbu tenglamalar sistemasi orqali ochib beramiz:

1) $f_1(x_1,x_2)=x_1^2+x_2^2=1$, $f_2(x_1,x_2)=x_1^2-x_2=0$

2) $f_1(x_1,x_2):=x_1^2-10x_1+x_2^2+8, f_2(x_1,x_2):=x_1x_2^2+x_1-10x_2+8.$

1) given ..find bloki yordamida NTS ni yechish.

x:=1 y:=0 // *boshlang'ich iterasiya* (x:=-1 y:=0)

Given $x^2+y^2=1$ $x^2-y=0$ // *tenglamalarni berish, barobar yo'g'on*

$r:=Find(x,y)$ // *ildizni o'zgaruvchiga berish*

$r^T=[0.7861 \quad 0.6181]$ // *ildizni chiqarish*, ($r^T=[-0.7861 \quad 0.6181]$)

Nyuton usullarini tashkil etuvchi jarayonlar tuzamiz.

2) Nyuton iterasiya usullari yordamida NTSni taqribiy yechish.

ORIGIN:=1 $g(x)^T:=[x_1^2+x_2^2=1, x_1^2-x=0]$ // *iterasiyalovchi funksiya*

$J(x):=\begin{bmatrix} 2x_1 & 2x_2 \\ 2x_1 & -1 \end{bmatrix}$ // *Yakobi matrisasini qurish*

$x^{<1>}:=[-1 \quad 0]^T$ $y^{<1>}:=[-1 \quad 0]^T$ // *boshlang'ich iterasiyani berish* ($x^{<1>}:=[1 \quad 0]^T$)

k=1..5 $x^{<k+1>}:=x^{<k>}-(J(x^{<k>}))^{-1}f(x^{<k>})$ // *Nyuton iterasiyalarini qurish*

$x=\begin{bmatrix} -1 & -1 & -0.833 & -0.788 & -0.786 & -0.786 \\ 0 & 1 & 0.667 & 0.619 & 0.618 & 0.618 \end{bmatrix}$ // $x=\begin{bmatrix} 1 & 1 & 0.8333 & 0.7881 & 0.7861 & 0.7861 \\ 0 & 1 & 0.6667 & 0.6190 & 0.6180 & 0.6180 \end{bmatrix}$

$y^{<k+1>}:=y^{<k>}-(J(y^{<1>}))^{-1}f(y^{<k>})$ // *Soddalashgan Nyuton iterasiyalarini qurish*

$y=\begin{bmatrix} -1 & -1 & -0.833 & -0.788 & -0.786 & -0.786 \\ 0 & 1 & 0.667 & 0.619 & 0.618 & 0.618 \end{bmatrix}$ // $y=\begin{bmatrix} 1 & 1 & 0.8333 & 0.7881 & 0.7861 & 0.7861 \\ 0 & 1 & 0.6667 & 0.6190 & 0.6180 & 0.6180 \end{bmatrix}$

$x^{<k+1>}:=x^{<k>}-(J(x^{<k>}))^{-1}f(x^{<k>})$ formula hozircha faqat Mathcad da ishlayapti.

Topshiriqlarni Maple dasturida bajarish.

1) CHTS ni ichki funksiya bilan yechish

$f1(x1,x2):=x1^2-10x1+x2^2+8; f2(x1,x2):=x1x2^2+x1-10x2+8;$

$fsolve(\{f1,f2\},\{x1,x2\}); //\{x1=1.000000000, x2=1.000000000\}$

2) CHTS ni Nyuton iterasiya usuli bilan taqribiy yechish.

$f1(x1,x2):=x1^2-10x1+x2^2+8; f11(x1,x2):=2x1-10; f12(x1,x2):=2x2;$

$f2(x1,x2):=x1x2^2+x1-10x2+8; f21(x1,x2):=x2^2+1; f22(x1,x2):=2x1x2-10;$

$d(x1,x2):=f11(x1,x2)*f22(x1,x2)-f12(x1,x2)*f21(x1,x2);$

$g1:=x1=x1-d1(x1,x2)/d(x1,x2); g2:=x2=x2-d2(x1,x2)/d(x1,x2);$

$fsolve(\{g1,g2\},\{x1,x2\}); \quad //\{x1=1.000000000,\ x2=1.000000000\}$

3) Eng kichik kvadratlar usuli bilan taqribiy yechish

$with(Optimization): Minimize((x1^2-10x1+x2^2+8)\hat{}2+(x1x2^2+x1-10x2+8)\hat{}2);$

//8.33122e-19,[x=0.999986,y=0.999946].

Ko'rinib turibdiki, uch xil usul deyarli bir xil natija beryapti.

Individual topshiriqlar.

CHTSning yechimi avvalo Mathcad va Maple dasturilarida ichki funksiyalar yordamida topilsin, so'ng yechim algoritm tuzilib Nyuton usullari bilan hisoblansin. Natijalarning yaqinligiga yerishilsin. Grafiklar chizilsin.

5.1-jadval

№	Tenglamalar sistemasi	Yechim
1	$\sin(x+1)-y=1.2, 2x+\cos y=2$	
2	$\sin x+2y=2, \cos(y-1)+x=0.7$	
3	$tg(xy+0.4)=x^2, 0.6x^2+2y^2=1$	
4	$\cos x+y=1.5, 2x-\sin(y-0.5)=1$	
5	$\{\sin(x+0,5)-y=1, 2x-\sin(y-0,5)=1$	
6	$\cos(x+0.5)+y=0.8; \sin y-2x=1.6$	
7	$\{\cos(y-0.5)+x=0.8; \sin x+2y=1.6;$	
8	$2x-\cos(y+1)=0; y+\sin x=-0,4$	
9	$\cos(y+0,5)-x=2; \sin x-2y=1$	
10	$\sin(x+1)-y=1; 2x+\cos y=2$	

11	$\sin(x+1)-y=1; 2x+\cos y=2$	
12	$\cos(x-1)+y=0,8; x-\cos y=2$	
13	$\sin x+2y=1,6; \cos(y-1)+x=1$	
14	$cox+y=1,2; 2x-\sin(y-0,5)=2$	
15	$\sin(x+y)=1,2x-0,2; x^2+y^2=1$	
16	$\cos(x-1)+y=0.5, x-\cos y=3$	
17	$\cos x+y=1.5, 2x-\sin(y-0,5)=1$	
18	$\sin(x+y)-1,6x=0, x^2+y^2=1$	
19	$\sin(x+y)-1,2x=0.2, x^2+y^2=1$	
20	$tg(xy+0.3)=x^2, 0.9x^2+2y^2=1$	
21	$\{\sin(x+y)-1,3x=0, x^2+y^2=1$	
22	$tg(xy+0,1)=x^2; 0,5x^2+2y^2=1$	
23	$\sin(x+y)=1,1x-0,1; x^2+y^2=1$	
24	$tg(x-y)-xy=0; x^2+2y^2=1$	
25	$\sin(x-y)-xy=-1, x^2-y^2=0.75$	
26	$tg(xy+0,2)=x^2; x^2+2y^2=1;$	
27	$\sin(x+y)-1,5x=0; x^2+y^2=1$	
28	$\{tgxy=x^2, 0,5x^2+2y^2=1$	
29	$\sin(x+y)=1,2x-0,2; x^2+y^2=1$	
30	$\sin(x+y)=1,2x-0,2; x^2+y^2=1$	

Nazariy saollar va topshiriqlar.

1.Ildizlar analitik usulda ajratish qanday teoremaga asoslangan?

2. Ildizlarni geometrik usulda ajratish qanday g'oyaga asoslangan?

3.Chiziqsiz tenglamalar sistemasini taqribiy yechishda Nyutonning iterasiya usuli, sodda Nyuton iterasiya usuli nima.

4. Nyuton usulida taqribiy yechim xatoligi qanday?

5. Yakobi matrisasi nima va u nochiziq tenglamalar sistemasi taqribiy echilganda qaerda ishlatiladi?

Amaliy mashg'ulot №6

Mavzu: Lagranj interpolasion formulasi va uning xatoligi

Mashg'ulotning maqsadi: Talabalarda Lagranj interpolasion formulasi va uning xatoligini yechish ko'nikmasini shakllantirish

Mashg'ulotning jihozi:

a) Ko'rgazmali material

b) Kompyuterning dasturiy ta'minoti

c) Matematik tizimlar

Mashg'ulot texnik vositalari: Pentium IV kompyuterlari (qo'shimcha qurilmalari) bilan jihozlangan kompyuter sinfi

Mashg'ulotning borishi:

a) Auditoriya va talabalarni darsga tayyorligini aniqlash

b) Yo'qlama qilish.

c) Talabalardan o'tilgan mavzularni takrorlash

d) Yangi mavzuning bayoni: kompyuter va ko'rgazmali qurollar yordamida bayon etiladi (Aqliy hujum metodi)

e) Dars yakuni: Amaliy mashg'ulot bo'yicha har bir talabaga individual topshiriqlar beriladi.

Mavzuni qisqacha bayoni

1.Ko'pxad bilan interpolyasiyalash:

$$P_n(x_i) = y_i,\ \ i = 0, 1, ..., n\ ,\ P_n(x) = a_0 + a_1 x + ... + a_n x^n = ?$$

2. Lagranj interpolyasiya ko'phadi, bazis interpolyasiya ko'phad, qoldiq had:

$$L_n(x) = P_n(x) = \sum_{i=0}^{n} f(x_i) l_i(x),\ \ l_i(x) = \prod_{j=0, j\neq i}^{n} \frac{x - x_j}{x_i - x_j}, i = 0, ..., n,$$

$$R_n(f, x) = \frac{f^{(n+1)}(\xi)}{(n+1)!}(x - x_0)..(x - x_n).$$

Tekis joylashgan nuqtalar $\{x_i = a + ih, i = 0..n, h = (b-a)/n\}$ uchun ega bo'lamiz:

$$L_n(x)=\omega_n(t)\sum_{i=0}^{n}\frac{f(x_i)}{(t-i)i!(n-i)!(-1)^{n-i}},\omega_n(t)=t(t-1)...(x-n),t=(x-x_0)/h,$$

$$R_n(x)=h^{n+1}\frac{t(t-1)...(t-n)}{(n+1)!}f^{(n+1)}(\xi),\xi\in(a,b).$$

3. Interpolyasiya ko'phadining qurishning Eytken iterasiya usuli:

$$L_{01}(x)=\frac{1}{x_1-x_0}\begin{vmatrix}y_0 & x_0-x\\ y_1 & x_1-x\end{vmatrix}, L_{ii+1}(x)=\frac{1}{x_{i+1}-x_i}\begin{vmatrix}y_i & x_i-x\\ y_{i+1} & x_{i+1}-x\end{vmatrix}, i=0..n-1,$$

$$L_{01..k}(x)=\frac{1}{x_k-x_0}\begin{vmatrix}L_{01...k-1}(x) & x_0-x\\ L_{1..k}(x) & x_k-x\end{vmatrix}, k=1..n; L_n(x)=L_{01..n}(x).$$

6.1-jadval

x_i	y_i	x_i-x	$L_{i-1,i}$	$L_{i-2,i-1,i}$	$L_{i-3,i-2,i-1,i}$	...	$L_{0,1..n}$
x_0	y_0	x_0-x					
x_1	y_1	x_1-x	$L_{0,1}$				
x_2	x_2	x_2-x	$L_{1,2}$	$L_{0,1,2}$			
x_n	y_n	x_n-x	$L_{n-1,n}$	$L_{n-2,n-1,n}$	$L_{i-3,i-2,i-1,i}$	...	$L_{0,1..n}$

Topshiriqlarni Interpolyasiya masalalarini Mathcad dasturida bajarish. Mathcadda Lagranj interpolyasiya formulalarini yaratish mumkin.

Lagranj interpolyasiya ko'phadi. Mathcad dasturida programmasini yozib chiqamiz:

$n:=8$ $f(x):=x*\sin(x)$ $a:=0$ $b:=1$ $h:=(b-a)/n$ *// tugun nuqtalar, funksiya*

$i:=0..n$ $vx_i:=a+ih$ $vy_i=f(vx_i)$ *// interpolyasiya shartlari*

$vx^T=(0\ 0.125\ 0.25\ 0.375\ 0.5\ 0.625\ 0.75\ 0.875\ 1)$

$vy^T=(0\ 0.016\ 0.062\ 0.137\ 0.24\ 0.366\ 0.511\ 0.672\ 0.841)$ *// qiymatlar*

$i:=0..n$ $j:=0..n$ *// indekslarning o'zgarish sohasi*

$Ln(x) := \sum_{i=0}^{n} vy_i \prod_{j=0}^{n} if(i=j,1,(x-vx_j)/(vx_i-vx_j))$ // *Lagranj interpolyasiya ko'phadi*

$\overrightarrow{f(t)} = \begin{pmatrix}0.062\\0.24\\0.511\end{pmatrix}$ $\overrightarrow{Ln(t)} = \begin{pmatrix}0.062\\0.24\\0.511\end{pmatrix}$ // *funcsiya va ko'phad qiymatlari*

Topshiriqlarni Interpolyasiya masalalarini Maple dasturida bajarish.

Mapleda ko'phadlar va splaynlar bilan interpolyasiya masalalarini yechish mumkin. Avvalo, with(CurveFitting): komandasi bilan interpolyasiya paketi ochiladi, so'ng PolinomialInterpolation(xdata,ydata,v,opts) (ko'phadli interpolyasiya), Spline(xdata,ydata,v,dgr, endpts) (splayn interpolyasiya) komandalari beriladi. Bu yerda xdata, ydata tugun nuqtalar va interpolyasiyalanuvchi funksiya qimmatlari to'plami: $xdata := [x0, x1, ..., xn], ydata := [y0, y1, ..., yn]$,v:=x yangi interpolyasiya nuqtasi, dgr-splaynning darajasi, opts:=Lagrange, Newton, power-interpolyant turi, endpts:='natural','notacnot','p eriodic'-chegara shartlarning turlari. Bu oynada eng kichik kvadratlar usuli bilan yaqinlashtirish, rasional interpolyasiya (Tile interpolyasiya usuli) larni ham qurish imkoniyati mavjud.

1)Tools>Assistants>CurveFitting komandasini beramiz, jadval chiqadi, uni to'ldiramiz:



6.1-rasm

xy:=[[0,0],[0.125,0.016],[0.250,0.062],[0.375,0.137],[0.5,0.24],0.625,0.366],[0.75,0.511],[0.875,0.672],[1,0.841]];

2) Komandalar ro'yxatidan Fit (Fit, Clear, Import, Help,Cancel, Curent Page, Previous, Cancel) komandasini tanlaymiz.

3)Yangi Curve Fitting Assistant oynasidan Polynomial Interpolation komandasidan Plot (chizing) komandasini tanlaymiz.

4) tanlashga muvofiq 8-darajali interpolyasiya ko'phadi chiziladi va javoblar satrida ko'phadning o'zi ko'rinadi:

$$L_8(x) = 5.4093x^8 - 24.7580x^7 + 45.7841x^6 - 43.8727x^5 + 23.0193x^4 - 6.6001x^3 + 1.9011x^2 - 0.0406x$$



6.2-rasm

Individual topshiriqlar.

$y = f(x)$ funksiya $[a,b]$ kesmada berilgan. To'r $x_i = a + ih, i = 0..n, n = 10, h = (b-a)/n$ tuzilib funksiya, Lagranj ko'phadlari bilan interpolyasiyalansin va $\bar{x}_1, \bar{x}_2, \bar{x}_3 \neq x_i$ nuqtalarda qiymatlari solishtirilsin.

6.2-jadval

№	Funksiya	Jvaoblar
1	$f(x) = x^4(1+x^2)^{-1}, [1,2]$	
2	$f(x) = x^2e^{-2x}, [0;1.6]$	
3	$f(x) = x^{-0.5}\ln(x), [1,3]$	
4	$f(x) = x\sin 3(x), [0,1]$	

5	$f(x)=\sqrt{1+x}\lg(1+x),[0.1,1.1]$	
6	$f(x)=x^2\ln(x),[1,2]$	
7	$f(x)=x^2(x^2+1)^{-1},[1,4]$	
8	$f(x)=x\cos(2x),[0,1]$	
9	$f(x)=x^4\ln(x),[1,2]$	
10	$f(x)=\sqrt{x}\ln(x),[1,4]$	
11	$f(x)=x^4(1+x^2)^{-1},[1,2]$	
12	$f(x)=x^3\sqrt{1-x^2},[1,2]$	
13	$f(x)=\sqrt{x}/(1+x),[1,4]$	
14	$f(x)=e^{-x},[1,4]$	
15	$f(x)=xarctg(x),[0,1]$	
16	$f(x)=x\arccos(x),[-0.5,0.5]$	
17	$f(x)=x\arcsin(x),[0,0.9]$	
18	$f(x)=(x+x^3)^{-1},[1,2.2]$	
19	$f(x)=x3^{-x},[0,1.5]$	
20	$f(x)=x^2e^{-x},[0,1]$	
21	$f(x)=x^3/(1+x^2),[0,2]$	
22	$f(x)=(x+x^2)^{-1},[1,3]$	
23	$f(x)=\sqrt{1+x^2},[0,2]$	
24	$f(x)=x^2\sin(x),[0,1]$	
25	$f(x)=x\sin(x),[0,1.6]$	
26	$f(x)=x^3/\sqrt{1+x^2},[-0.4,0.8]$	
27	$f(x)=x^2\cos(x),[0,1]$	
28	$f(x)=x2^{-x},[0,2]$	
29	$f(x)=e^x\sin(x),[0,1.2]$	
30	$f(x)=x^2 arctg(x),[0,1]$	

Nazariy savollar va topshiriqlar.

1. Interpolyasiya masalasi nima?
2. Ko'phad bilan interpolyasiyalash nima?
3. Lagranj interpolyasiya ko'phadi nima?
4. Lagranj interpolyasiya ko'phadining qoldiq hadi nima?

Amaliy mashg'ulot №7

Mavzu: Tengmas oraliqlar uchun Nyuton interpolasion formulasi

Mashg'ulotning maqsadi: Talabalarda tengmas oraliqlar uchun Nyuton interpolasion formulasini yechish ko'nikmasini shakllantirish

Mashg'ulotning jihozi:

a) Ko'rgazmali material

b) Kompyuterning dasturiy ta'minoti

c) Matematik tizimlar

Mashg'ulot texnik vositalari: Pentium IV kompyuterlari (qo'shimcha qurilmalari) bilan jihozlangan kompyuter sinfi

Mashg'ulotning borishi:

a) Auditoriya va talabalarni darsga tayyorligini aniqlash

b) Yo'qlama qilish.

c) Talabalardan o'tilgan mavzularni takrorlash

d) Yangi mavzuning bayoni: kompyuter va ko'rgazmali qurollar yordamida bayon etiladi (Aqliy hujum metodi)

e) Dars yakuni: Amaliy mashg'ulot bo'yicha har bir talabaga individual topshiriqlar beriladi.

Mavzuni qisqacha bayoni

1. Interpolyasiya masalasi: $F(x_i) = y_i$, $i = 0,1,...,n$, $F(x) = ?$.

2.Ko'pxad bilan interpolyasiyalash: $P_n(x_i) = y_i$, $i = 0,1,...,n$, $P_n(x) = ?$.

3.Bo'lingan ayirmalar: $f[x_0,...,x_k]=(f[x_0,...,x_{k-2},x_k]-f[x_0,...,x_{k-1}])/(x_k-x_{k-1}), k\geq 1.$

Ulami quyidagicha qurish maqsadga muvofiq:

6.2-jadval

x_i	$f(x_i)$	$f[x_0,x_i]$	$f[x_0,x_i]$	$f[x_0,x_i]$	...	$f[x_0,x_1,...,x_n]$
x_0	$f(x_0)$	-	-	-	-	-
x_1	$f(x_1)$	$f[x_0,x_1]$	-	-	-	-
x_2	$f(x_2)$	$f[x_0,x_2]$	$f[x_0,x_1,x_2]$	-	-	-
x_3	$f(x_3)$	$f[x_0,x_3]$	$f[x_0,x_1,x_3]$	$f[x_0,x_1,x_2,x_{n-1}]$	-	-
-	-	-	-	-	-	-
x_n	$f(x_n)$	$f[x_0,x_n]$	$f[x_0,x_1,x_n]$	$f[x_0,x_1,x_2,x_n]$	-	$f[x_0,x_1,...,x_n]$

Bo'lingan ayirmalarning quyidagi xossalari mavjud:

1)Bo'lingan ayirmalar o'z argumentlarining ixtiyoriy o'rin almashtirishiga nisbatan simmetrik funksiya;

2)Ularni hisoblash uchun quyidagi formulalar o'rinli:

$$f[x_0,x_1,...,x_k]=\frac{f[x_1,...,x_k]-f[x_0,...,x_{k-1}]}{x_k-x_0}=\frac{f[x_0,...,x_{k-2},x_k]-f[x_0,...,x_{k-1}]}{x_k-x_{k-1}}.$$

Nyuton interpolyasiya formulasini qurish uchun jadvalning bosh diogonali elementlari-bosh bo'lingan ayirmalar kerak. Ular dasturlash tillarida 2 ta rekkurent sikl bilan quriladi:

$$a_0:=f(x_0)$$
$$for\ i:=1\ do\ n$$
$$for\ j=i\ to\ n\ do\ n$$
$$a_j:=(a_j-a_{i-1})/(x_j-x_{i-1})$$

4. Nyuton interpolyasiya formulasi:

$$N_n(f;x)=P_n(x)=f(x_0)+\sum_{k=1}^{n}f[x_0,...,x_k](x-x_0)...(x-x_{k-1}),$$

$$R_n(f,x)=f[x,x_0,...,x_n](x-x_0)..(x-x_n).$$

Topshiriqlarni Interpolyasiya masalalarini Mathcad dasturida bajarish.

Mathcadda Nyuton interpolyasiya formulalarini yaratish mumkin.

Nyuton interpolyasiya ko'phadi.

Mathcad dasturida programmasini yozib chiqamiz:

$n:=8\quad f(x):=x\cdot\sin(x)\quad a:=0\quad b:=1\quad h:=(b-a)/n$ *// tugun nuqtalar, funksiya*

$i:=0..n\quad vx_i:=a+ih\quad vy_i=f(vx_i)$ *// interpolyasiya shartlari*

$vx^T=(0\ \ 0.125\ \ 0.25\ \ 0.375\ \ 0.5\ \ 0.625\ \ 0.75\ \ 0.875\ \ 1)$

$vy^T=(0\ \ 0.016\ \ 0.062\ \ 0.137\ \ 0.24\ \ 0.366\ \ 0.511\ \ 0.672\ \ 0.841)$ *// funksiya qiymatlari*

$a_0:=f(vx_0)$ k:=1..n $a_k:=\sum_{i=0}^{k} vy_i\prod_{j=0}^{k} if(i=j,1,1/(vx_i-vx_j))$ *// bo'lingan ayirmalar*

$Nn(x):=a_0+\sum_{i=1}^{n} a_i\prod_{j=0}^{i-1}(x-vx_j)$ *// Nyuton ko'phadi*

$\overrightarrow{f(t)}=\begin{pmatrix}0.062\\0.24\\0.511\end{pmatrix}\quad \overrightarrow{Nn(t)}=\begin{pmatrix}0.062\\0.24\\0.511\end{pmatrix}$ *// funksiya va ko'phad qiymatlari*

Topshiriqlarni Interpolyasiya masalalarini Mathcad dasturida bajarish.

Maple da ko'phadlar va splaynlar bilan interpolyasiya masalalarini yechish mumkin. Avvalo, with(CurveFitting): komandasi bilan interpolyasiya paketi ochiladi, so'ng PolinomialInterpolation(xdata,ydata,v,opts) (ko'phadli interpolyasiya), Spline(xdata, ydata, v, dgr, endpts) (splayn interpolyasiya) komandalari beriladi. Bu yerda xdata, ydata tugun nuqtalar va interpolyasiyalanuvchi funksiya qimmatlari to'plami: $xdata:=[x0,x1,...,xn]$, $ydata:=[y0,y1,...,yn]$,v:=x interpolyasiya nuqtasi, dgr-splaynning darajasi, opts:=Lagrange, Newton, power-interpolyant turi.

1)Tools>Assistants>CurveFitting komandasini beramiz, jadval chiqadi va uni to'ldiramiz:

$xy:=[[0,0],[0.125,0.016],[0.250,0.062],[0.375,0.137],[0.5,0.24],0.625,0.366],[0.75,0.511],[0.875,0.672],[1,0.841]]);$

2) Komandalar ro'yxatidan Fit (Fit, Clear, Import, Help, Cancel, Curent Page, Previous, Cancel) komandasini tanlaymiz.

3)Yangi Curve Fitting Assistant oynasidan Polynomial Interpolation komandasidan Plot (chizing) komandasini tanlaymiz.

4) Tanlashga muvofiq 8-darajali interpolyasiya ko'phadi chiziladi va javoblar satrida ko'phadning o'zi ko'rinadi:

$$N_8(x) = 3852.2803x^8 - 1283.0159x^7 - 1795.2783x^6 + 1370.5761x^5 - 6186.7749x^4 + 1664.9883x^3 - 252.2672x^2 + 1865.12x - 0.4075$$



7.1-rasm

Ko'phadning koeffisientlari ancha katta sonlar. Bu hisoblashlarning turg'un emasligini ko'rsatadi.



7.2-rasm

Individual topshiriqlar.

$y = f(x)$ funksiya $[a,b]$ kesmada berilgan. To'r $x_i = a + ih, i = 0..n, n = 10, h = (b-a)/n$ tuzilib funksiya Nyuton interpolyasiya ko'phadlari bilan interpolyasiyalansin va $\bar{x}_1, \bar{x}_2, \neq x_i$ nuqtalarda qiymatlari solishtirilsin. Topshiriqlar jadvali oldingi bobdan olinsin.

7.1-jadval

№	Funksiya	Jvaoblar
1	$f(x)=x^4(1+x^2)^{-1}$, [1,2]	
2	$f(x)=x^2e^{-2x}$, [0;1.6]	
3	$f(x)=x^{-0.5}\ln(x)$, [1,3]	
4	$f(x)=x\sin 3(x)$,[0,1]	
5	$f(x)=\sqrt{1+x}\lg(1+x)$,[0.1,1.1]	
6	$f(x)=x^2\ln(x)$,[1,2]	
7	$f(x)=x^2(x^2+1)^{-1}$,[1,4]	
8	$f(x)=x\cos(2x)$,[0,1]	
9	$f(x)=x^4\ln(x)$,[1,2]	
10	$f(x)=\sqrt{x}\ln(x)$,[1,4]	
11	$f(x)=x^4(1+x^2)^{-1}$,[1,2]	
12	$f(x)=x^3\sqrt{1-x^2}$,[1,2]	
13	$f(x)=\sqrt{x}/(1+x)$,[1,4]	
14	$f(x)=e^{-x}$,[1,4]	
15	$f(x)=xarctg(x)$,[0,1]	
16	$f(x)=x\arccos(x)$,[−0.5,0.5]	
17	$f(x)=x\arcsin(x)$,[0,0.9]	
18	$f(x)=(x+x^3)^{-1}$,[1,2.2]	
19	$f(x)=x3^{-x}$,[0,1.5]	
20	$f(x)=x^2e^{-x}$,[0,1]	
21	$f(x)=x^3/(1+x^2)$,[0,2]	
22	$f(x)=(x+x^2)^{-1}$,[1,3]	
23	$f(x)=\sqrt{1+x^2}$,[0,2]	

24	$f(x)=x^2\sin(x),[0,1]$	
25	$f(x)=x\sin(x),[0,1.6]$	
26	$f(x)=x^3/\sqrt{1+x^2},[-0.4,0.8]$	
27	$f(x)=x^2\cos(x),[0,1]$	
28	$f(x)=x2^{-x},[0,2]$	
29	$f(x)=e^x\sin(x),[0,1.2]$	
30	$f(x)=x^2\operatorname{arctg}(x),[0,1]$	

Nazariy savollar va topshiriqlar.

1.Interpolyasiya masalasi nima?

2.Ko'phad bilan interpolyasiyalash nima?

3. Bo'lingan ayirmalar nima?

4. Nyuton interpolyasiya ko'phadi va qoldiq hadi nima ?

5. Lagranj interpolyasiya ko'phadi va qoldiq hadi nima?

Amaliy mashg'ulot №8

Mavzu: Teng oraliqlar uchun Nyuton interpolasion formulasi

Mashg'ulotning maqsadi: Talabalarda teng oraliqlar uchun Nyuton interpolasion formulasini yechish ko'nikmasini shakllantirish

Mashg'ulotning jihozi:

a) Ko'rgazmali material

b) Kompyuterning dasturiy ta'minoti

c) Matematik tizimlar

Mashg'ulot texnik vositalari: Pentium IV kompyuterlari (qo'shimcha qurilmalari) bilan jihozlangan kompyuter sinfi

Mashg'ulotning borishi:

a) Auditoriya va talabalarni darsga tayyorligini aniqlash

b) Yo'qlama qilish.

c) Talabalardan o'tilgan mavzularni takrorlash

d) Yangi mavzuning bayoni: kompyuter va ko'rgazmali qurollar yordamida bayon etiladi (Aqliy hujum metodi)

e) Dars yakuni: Amaliy mashg'ulot bo'yicha har bir talabaga individual topshiriqlar beriladi.

Mavzuni qisqacha bayoni

1. Chekli ayirmalar. [a, b] kesmada tekis to'r $a = x_0 < x_1 < \cdots < x_n = b$ - bir-biridan teng uzoqlikda yotgan $x_i = a + ih, i = 0..n, h = (b - n)/n$ nuqtalar to'plamini tuzamiz. Bu nuqtalarda $y_i = f(x_i), i = 0..n$ qiymatlarda berilgan bo'lsin. Quyidagi chekli ayirmalarni kiritamiz:

$\Delta y_i = y_{i+1} - y_i,$ birinchi tartibli

$\Delta^2 y_i = \Delta y_{i+1} - \Delta y_i = y_{i+1} - 2y_i + y_{i-1},$ ikkinchi tartibli,

....

$\Delta^k y_i = \Delta^{k-1} y_{i+1} - \Delta^{k-1} y_i = \sum_{j=0}^{k} (-1)^j C_k^j \; y_{k+i-j},$ k- tartibli.

2. Nyutonning birinchi interpolasion formulasi. Chekli ayirmalar formulasini Nyutonning birinchi formulasiga qo'yamiz:

$$N_n(f;x) = P_n(x) = f(x_0) + \sum_{k=1}^{n} f[x_0,\dots,x_k](x-x_0)\dots(x-x_{k-1}).$$

$$R_n(f,x) = f[x,x_0,\dots,x_n](x-x_0)\dots(x-x_n).$$

Ravshanki,

$$f[x_0,x_1] = \frac{1}{h}(f_1 - f_0) = \frac{\Delta f_0}{h},$$

$$f[x_0,x_1,x_2] = \frac{1}{x_2 - x_0}[f[x_1,x_2] - f[x_0,x_1]] = \frac{1}{2h}[\Delta f_1 - \Delta f_0] = \frac{1}{2!h^2}\Delta^2 f_0.$$

......

$$f[x_0,x_1,\dots x_k] = \frac{1}{x_k - x_0}[f[x_1,\dots,x_k] - f[x_0,x_{k-1}]] = \frac{1}{kh}[\frac{1}{(k-1)!h^{k-1}}\Delta^{k-1} f_1 - \frac{1}{(k-1)!h^{k-1}}\Delta^{k-1} f_0] = \frac{1}{k!h^k}\Delta^k f_0$$

Demak, biz quyidagi formulalarga egamiz:

$$a_0 = f(x_0), a_k = f[x_0,\dots,x_k] = \frac{1}{k!h^k}\Delta^k f_0, k = 1..n.$$

va Nyutonning birinchi interpolasion formulasi quyidagicha yoziladi:

$$N_n(x) = f_0 + \frac{\Delta f_0}{h}(x-x_0) + \frac{\Delta^2 f_0}{2!h^2}(x-x_0)(x-x_1) + \dots + \frac{\Delta^n f_0}{n!h^n}(x-x_0)\dots(x-x_{n-1})$$

Bu yerda $x = x_0 + qh$ almashtirish bajarsak quyidagi formulaga kelamiz:

$$N_n(x) = f_0 + \frac{q}{1!}\Delta f_0 + \frac{q(q-1)}{2!}\Delta^2 f_0 + .. + \frac{q(q-1)..(q-n+1)}{n!}\Delta^n f_0.$$

3. Xuddi shunday, Nyutonning ikkinchi interpolasion formulasi

$$N_n(f;x) = P_n(x) = a_0 + \sum_{k=1}^{n} a_k (x - x_n)...(x - x_{n-k+1})$$

quyidagi ko'rinishni oladi:

$$a_0 = f(x_n), a_k = \frac{1}{k!h^k}\Delta^k f_{n-k}, k = 1..n$$

$$N_n(x) = f_n + \frac{\Delta f_{n-1}}{h}(x - x_n) + \frac{\Delta^2 f_{n-2}}{2!h^2}(x - x_n)(x - x_{n-1}) + .. + \frac{\Delta^n f_0}{n!h^n}(x - x_n)..(x - x_1)$$

Bu yerda $x = x_n + qh$ almashtirish bajarsak quyidagi formulaga kelamiz:

$$N_n(x) = f_n + \frac{q}{1!}\Delta f_{n-1} + \frac{q(q+1)}{2!}\Delta^2 f_{n-2} + .. + \frac{q(q+1)..(q+n-1)}{n!}\Delta^n f_0.$$

Qoldiq hadning ko'rinishi esa mos ravishda quyidagicha bo'ladi

$$R_n(q) = h^{n+1}\frac{q(q-1)...(q-n)}{(n+1)!}f^{(n+1)}(\xi).$$

$$R_n(q) = h^{n+1}\frac{q(q+1)...(q+n)}{(n+1)!}f^{(n+1)}(\eta)$$

Topshiriqlarni Interpolyasiya masalalarini Mathcad dasturida bajarish. Mathcadda Nyuton, Lagranj interpolyasiya formulalarini teng uzoqlikda joylashgan nuqtalar uchun yaratish mumkin.

Nyuton interpolyasiya ko'phadi. Mathcad dasturida programmani yozib chiqamiz:

$n := 8 \quad f(x) := x * \sin(x) \quad a := 0 \quad b := 1 \quad h := (b-a)/n$ *// tugun nuqtalar, funksiya*

$i := 0..n \quad vx_i := a + ih \quad vy_i = f(vx_i)$ *// interpolyasiya shartlari*

$vx^T = (0 \ \ 0.125 \ \ 0.25 \ \ 0.375 \ \ 0.5 \ \ 0.625 \ \ 0.75 \ \ 0.875 \ \ 1)$

$vy^T = (0 \ \ 0.016 \ \ 0.062 \ \ 0.137 \ \ 0.24 \ \ 0.366 \ \ 0.511 \ \ 0.672 \ \ 0.841)$ *// funksiya qiymatlari*

$a_0 := f(vx_0)$ k:=1..n $\quad a_k := \sum_{i=0}^{k} vy_i \prod_{j=0}^{k} if(i = j, 1, 1/(vx_i - vx_j))$ *// bo'lingan ayirmalar*

$Nn(x) := a_0 + \sum_{i=1}^{n} a_i \prod_{j=0}^{i-1}(x - vx_j)$ *// Nyuton ko'phadi*

$$\overrightarrow{f(t)} = \begin{pmatrix} 0.062 \\ 0.24 \\ 0.511 \end{pmatrix} \quad \overrightarrow{Nn(t)} = \begin{pmatrix} 0.062 \\ 0.24 \\ 0.511 \end{pmatrix}$$ *// natijalar*

Interpolyasiya masalalarini Maple dasturida bajarish.

Maple da ko'phadlar va splaynlar bilan interpolyasiya masalalarini yechish mumkin. Avvalo, with(CurveFitting): komandasi bilan interpolyasiya paketi ochiladi, so'ngra PolinomialInterpolation(xdata,ydata,v,opts) (ko'phadli interpolyasiya), Spline(xdata,ydata,v,dgr, endpts) (splayn interpolyasiya) komandalari beriladi. Bu yerda xdata, ydata tugun nuqtalar va interpolyasiyalanuvchi funksiya qimmatlari to'plami: $xdata := [x0, x1, ..., xn], ydata := [y0, y1, ..., yn]$,v:=x interpolyasiya nuqtasi, dgr-splaynning darajasi, opts:=Lagrange, Newton,power-interpolyant turi, endpts:='natural','notacnot','p yeriodic'-chegara shartlarning turlari.

with(Student[NumericalAnalysis]):

$xy := [[0,1],[1,2],[2,9],[3,28]];$

N:= PolinomialInterpolation(xy, independentvar=x, method=newton);

expand(Int yerpolant(N)); // $1+(2/3)x-x^2+(4/3)x^3$



8.1-rasm

Individual topshiriqlar.

$y = f(x)$ funksiya $[a,b]$ kesmada berilgan. To'r $x_i = a + ih, i = 0..n, n = 10, h = (b-a)/n$ tuzilib funksiya Nyuton bilan interpolyasiyalansin va $\bar{x}_1, \bar{x}_2, \bar{x}_3 \neq x_i$ nuqtalarda qiymatlari solishtirilsin.

8.1-jadval

№	Funksiya	Jvaoblar
1	$f(x)=x^4(1+x^2)^{-1},[1,2]$	
2	$f(x)=x^2e^{-2x},[0;1.6]$	
3	$f(x)=x^{-0.5}\ln(x),[1,3]$	
4	$f(x)=x\sin 3(x),[0,1]$	
5	$f(x)=\sqrt{1+x}\lg(1+x),[0.1,1.1]$	
6	$f(x)=x^2\ln(x),[1,2]$	
7	$f(x)=x^2(x^2+1)^{-1},[1,4]$	
8	$f(x)=x\cos(2x),[0,1]$	
9	$f(x)=x^4\ln(x),[1,2]$	
10	$f(x)=\sqrt{x}\ln(x),[1,4]$	
11	$f(x)=x^4(1+x^2)^{-1},[1,2]$	
12	$f(x)=x^3\sqrt{1-x^2},[1,2]$	
13	$f(x)=\sqrt{x}/(1+x),[1,4]$	
14	$f(x)=e^{-x},[1,4]$	
15	$f(x)=x\,arctg(x),[0,1]$	
16	$f(x)=x\arccos(x),[-0.5,0.5]$	
17	$f(x)=x\arcsin(x),[0,0.9]$	
18	$f(x)=(x+x^3)^{-1},[1,2.2]$	
19	$f(x)=x3^{-x},[0,1.5]$	
20	$f(x)=x^2e^{-x},[0,1]$	
21	$f(x)=x^3/(1+x^2),[0,2]$	
22	$f(x)=(x+x^2)^{-1},[1,3]$	
23	$f(x)=\sqrt{1+x^2},[0,2]$	
24	$f(x)=x^2\sin(x),[0,1]$	
25	$f(x)=x\sin(x),[0,1.6]$	

26	$f(x)=x^3/\sqrt{1+x^2},[-0.4,0.8]$	
27	$f(x)=x^2\cos(x),[0,1]$	
28	$f(x)=x2^{-x},[0.2]$	
29	$f(x)=e^x\sin(x),[0,1.2]$	
30	$f(x)=x^2\,\mathrm{arc}tg(x),[0,1]$	

Nazariy savollar va topshiriqlar.

1. Interpolyasiya masalasi nima?
2. Ko'phad bilan interpolyasiyalash nima?
3. Chekli ayirmalar nima?
4. Birinchi Nyuton interpolyasiya ko'phadi nima ?
5. Ikkinchi Nyuton interpolyasiya ko'phadi nima ?

Amaliy mashg'ulot №9

Mavzu: Splaynlar bilan yaqinlashtirish

Mashg'ulotning maqsadi: Talabalarda splaynlar bilan yaqinlashtirish ko'nikmasini shakllantirish

Mashg'ulotning jihozi:

a) Ko'rgazmali material

b) Kompyuterning dasturiy ta'minoti

c) Matematik tizimlar

Mashg'ulot texnik vositalari: Pentium IV kompyuterlari (qo'shimcha qurilmalari) bilan jihozlangan kompyuter sinfi

Mashg'ulotning borishi:

a) Auditoriya va talabalarni darsga tayyorligini aniqlash

b) Yo'qlama qilish.

c) Talabalardan o'tilgan mavzularni takrorlash

d) Yangi mavzuning bayoni: kompyuter va ko'rgazmali qurollar yordamida bayon etiladi (Aqliy hujum metodi)

e) Dars yakuni: Amaliy mashg'ulot bo'yicha har bir talabaga individual topshiriqlar beriladi.

Mavzuni qisqacha bayoni

1. Chiziqli interpolyasiya splayni $S(x) = S_1(x) \in C[a,b]$ - har bir kesmacha $[x_i, x_{i+1}]$ da chiziqli funksiya va berilgan nuqtalarda berilgan qiymatlarni qabul qiladi: $S(x_i) = f(x_i)$, $i = 0 \dots n$, yani

$$S_1(x) = f(x_i) + f[x_i, x_{i+1}](x - x_i), x_i \le x \le x_{i+1} \quad , |f(x) - S_1(x)| \le \frac{M_2 h^2}{8}, M_2 = \max_{x \in [a,b]} |f''(x)|.$$

2. Kubik interpolyasiya splayni $S(x) = S_3(x) \in S^2[a,b]$ har bir kesmacha $[x_i, x_{i+1}]$ da uchinchi darajali ko'pxad va berilgan nuqtalarda berilgan qiymatlarni qabul qiladi va ikkita chegara shartga bo'ysinadi:

$S_3(x_i) = f(x_i)$, $i = 0 \dots n$, yani

$$S(f;x) = \frac{M_i(x_{i+1} - x)^3}{6h_i} + \frac{M_{i+1}(x - x_i)^3}{6h_i} + (f_i - \frac{M_i h_i^2}{6})\frac{x_{i+1} - x}{h_i} + (f_{i+1} - \frac{M_{i+1} h_i^2}{6})\frac{x - x_i}{h_i},$$

$$2M_0 + \beta_0 M_1 = d_0, \; \alpha_i M_{i-1} + 2M_i + \beta_i M_{i+1} = d_i, \; i = 1,2,\dots,n-1 \;, \alpha_n M_0 + 2M_1 = d_n$$

3. Interpolyasiya splaynlarining ekstremal xossalari:

$$\int_a^b [S^{(2)}(x)]^2 dx = \min_{f(x_i) = z_i, i=0..n} \int_a^b [f^{(2)}(x)]^2 dx,$$

$$\int_a^b [f^{(2)}(x) - S^{(2)}(x)]^2 dx = \min_{f(x_i) = g(x_i), i=0..n} \int_a^b [f^{(2)}(x) - g^{(2)}(x)]^2 dx.$$

Oxirgi ekstremal xossadan kelib chiqadi: kvadrati bilan integrallanuvchi funksiyalar sinfida kubik interpolyasiya splaynining qoldiq hadi eng kichkina. Bu xossa barcha toq darajali interpolyasya splaynlari uchun o'rinli.

Mathcadda interpolyasiya masalalarini yechish.

Mathcadda splayn interpolyasiya formulalarini ichki funksiyalar yordamida qurish mumkin. Masalan, chiziqli interpolyasiya splayni $S1(x) := \mathrm{linterp}(vx, vy, x)$ komandasi bilan quriladi. Kubik splayn esa ikkita ichki funksiya bilan quriladi. Avval, $M := \mathrm{cspline}(vx, vy)$ komandasi bilan funksiya jadvali asosida splaynning koeffisientlari topiladi. So'ng, ular asosida $s3(x) := \mathrm{linterp}(M, vx, vy, x)$ ichki funksiya yordamida natural kubik splayning qiymati hisoblanadi. Yana boshqa chegara shartli splaynlar ham mavjud.

Splaynlar bilan interpolyasiyalash:

$S_1(x)=f(x_i)+f[x_i,x_{i+1}](x-x_i), x_i \le x \le x_{i+1}$, -chiziqli interpolyasiya splayni.

$$S_3(f;t)=\frac{M_i(x_{i+1}-t)^3}{6h_i}+\frac{M_{i+1}(t-x_i)^3}{6h_i}+(f_i-\frac{M_ih_i^2}{6})\frac{x_{i+1}-t}{h_i}+(f_{i+1}-\frac{M_{i+1}h_i^2}{6})\frac{t-x_i}{h_i},$$

$x_i \le x \le x_{i+1}, i=0..n-1$,-kubik interpolyasiya splayni.

Chiziqli S1, kubik S3 splaynlar quyidagicha quriladi:

$n:=8 \quad f(x):=x*\sin(x) \quad a:=0 \quad b:=1 \quad h:=(b-a)/n$ *// tugun nuqtalar, funksiya*

$i:=0..n \quad vx_i:=a+ih \quad vy_i=f(vx_i)$ *// interpolyasiya shartlari*

$vx^T=(0\ 0.125\ 0.25\ 0.375\ 0.5\ 0.625\ 0.75\ 0.875\ 1)$

$vy^T=(0\ 0.016\ 0.062\ 0.137\ 0.24\ 0.366\ 0.511\ 0.672\ 0.841)$ *// qiymatlar*

$S1(x):=l\,\mathrm{interp}(vx,vy,x) \quad M:=cspline(vx,vy) \quad S3(x):=\mathrm{interp}(M,vx,vy,x)$ *//splaynlar*

$\overrightarrow{f(t)}=\begin{pmatrix}0.062\\0.24\\0.511\end{pmatrix} \quad \overrightarrow{s1(t)}=\begin{pmatrix}0.062\\0.24\\0.511\end{pmatrix} \quad \overrightarrow{s3(t)}=\begin{pmatrix}0.062\\0.24\\0.511\end{pmatrix}$ *// qiymatlar*

Mapleda interpolyasiya masalalarini yechish.

Mapleda ko'phadlar va splaynlar bilan interpolyasiya masalalarini yechish mumkin. Avvalo, with(CurveFitting): komandasi bilan interpolyasiya paketi ochiladi, so'ng PolinomialInterpolation(xdata,ydata,v,opts) (ko'phadli interpolyasiya), Spline(xdata, ydata,v, dgr, endpts) (splayn interpolyasiya) komandalari beriladi. Bu yerda xdata, ydata tugun nuqtalar va interpolyasiyalanuvchi funksiya qimmatlari to'plami: $xdata:=[x0,x1,...,xn], ydata:=[y0,y1,...,yn]$, v:=x interpolyasiya nuqtasi, dgr-splaynning darajasi, opts:=Lagrange, Newton, power-interpolyant turi, endpts:='natural','notacnot','p yeriodic'-chegara shartlarning turlari.

```
xy:=[[0,0],[0.125,0.016],[0.250,0.062],[0.375,0.137],[0.5,0.24],0.625,0.366],[0.75,0.511],[0.875,0.672],[1,0.841]]);
S1:=LinearSpline(xy, independentvar=x);
```



9.1-rasm

Degree=1.

S3:=CubicSpline(xy, independentvar=x);



9.2-rasm

Individual topshiriqlar.

$y=f(x)$ funksiya $[a,b]$ kesmada berilgan. To'r $x_i=a+ih, i=0..n, n=10, h=(b-a)/n$ tuzilib funksiya splaynlar bilan interpolyasiyalansin va $\bar{x}_1,\bar{x}_2,\bar{x}_3 \neq x_i$ nuqtalarda qiymatlari solishtirilsin.

9.1-jadval

№	Funksiya	Jvaoblar
1	$f(x)=x^4(1+x^2)^{-1},[1,2]$	
2	$f(x)=x^2e^{-2x},[0;1.6]$	
3	$f(x)=x^{-0.5}\ln(x),[1,3]$	
4	$f(x)=x\sin 3(x),[0,1]$	
5	$f(x)=\sqrt{1+x}\lg(1+x),[0.1,1.1]$	
6	$f(x)=x^2\ln(x),[1,2]$	
7	$f(x)=x^2(x^2+1)^{-1},[1,4]$	
8	$f(x)=x\cos(2x),[0,1]$	
9	$f(x)=x^4\ln(x),[1,2]$	
10	$f(x)=\sqrt{x}\ln(x),[1,4]$	
11	$f(x)=x^4(1+x^2)^{-1},[1,2]$	
12	$f(x)=x^3\sqrt{1-x^2},[1,2]$	
13	$f(x)=\sqrt{x}/(1+x),[1,4]$	
14	$f(x)=e^{-x},[1,4]$	
15	$f(x)=xarctg(x),[0,1]$	
16	$f(x)=x\arccos(x),[-0.5,0.5]$	
17	$f(x)=x\arcsin(x),[0,0.9]$	
18	$f(x)=(x+x^3)^{-1},[1,2.2]$	
19	$f(x)=x3^{-x},[0,1.5]$	
20	$f(x)=x^2e^{-x},[0,1]$	
21	$f(x)=x^3/(1+x^2),[0,2]$	
22	$f(x)=(x+x^2)^{-1},[1,3]$	
23	$f(x)=\sqrt{1+x^2},[0,2]$	
24	$f(x)=x^2\sin(x),[0,1]$	

25	$f(x)=x\sin(x),[0,1.6]$	
26	$f(x)=x^3/\sqrt{1+x^2},[-0.4,0.8]$	
27	$f(x)=x^2\cos(x),[0,1]$	
28	$f(x)=x2^{-x},[0,2]$	
29	$f(x)=e^x\sin(x),[0,1.2]$	
30	$f(x)=x^2\operatorname{arctg}(x),[0,1]$	

Nazariy savollar va topshiriqlar.

1. Ko'phadli interpolyasiya splaynlari nima?
2. Chiziqli interpolyasiya splayni nima?
3. Kubik interpolyasiya splayni nima?
4. Chiziqli interpolyasiya splaynining qoldig'i nima?
5. Chiziqli interpolyasiya splaynining ekstremal xossalari nima nima?
6. Kubik interpolyasiya splaynining ekstremal xossalari nima?

Amaliy mashg'ulot №10

Mavzu: Integrallarni taqribiy hisoblashda trapesiya formulasi

Mashg'ulotning maqsadi: Talabalarda integrallarni taqribiy hisoblashda trapesiya formulasi ko'nikmasini shakllantirish

Mashg'ulotning jihozi:

a) Ko'rgazmali material

b) Kompyuterning dasturiy ta'minoti

c) Matematik tizimlar

Mashg'ulot texnik vositalari: Pentium IV kompyuterlari (qo'shimcha qurilmalari) bilan jihozlangan kompyuter sinfi

Mashg'ulotning borishi:

a) Auditoriya va talabalarni darsga tayyorligini aniqlash

b) Yo'qlama qilish.

c) Talabalardan o'tilgan mavzularni takrorlash

d) Yangi mavzuning bayoni: kompyuter va ko'rgazmali qurollar yordamida bayon etiladi (Muammoli o'qitish texnologiyasi)

e) Dars yakuni: Amaliy mashg'ulot bo'yicha har bir talabaga individual topshiriqlar beriladi.

Mavzuni qisqacha bayoni

1.To'g'ri to'rtburchaklar formulasi:

$$J_h^{TT}(f)=h\sum_{i=0}^{n-1}f(x_i+h/2),\; R_h^{TT}(f)=J(f)-J_h^{TT}(f)=\frac{h^2(b-a)}{24}f''(c).$$

Usulning chizmasi quyida rasm 1 da ko'rsatilgan.

2.Trapesiya formulasi:

$$J_h^{TT}(f)=\frac{h}{2}[f(x_0)+2(f(x_1)+...+f(x_{n-1}))+f(x_n)],\; R_h^{TT}(f)=-\frac{h^2(b-a)}{12}f''(c)$$

Usulning chizmasi quyida rasm 2 da ko'rsatilgan.

Topshiriqni Mathcadda bajarish.

1. To'g'ri to'rtburchaklar formulasi:

$f(x):=\sin(x)\ a:=0\ b:=\pi\ n:=20$ // *funksiya, oraliq, bo'linishlar soni*

$J:=\int_a^b f(x)dx\ \ J=2$ // *hisoblanadigan integral*

$h:=(b-a)\ \ i:=0..n\ \ vx_i:=a+i*h$ // *qadam, tugun nuqtalar*

